2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 80 (1141), 2024-yil 26-aprel, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# HUQUQIY TAFAKKUR HODISASI

## Yoxud taraqqiyotning o‘qildiziga nega befarqmiz?

Tahlil va taqqos

**Manzilimiz boshi berk ko‘cha adog‘idagi uy edi. Oldinda atigi ming metrcha yo‘l qoldi. Atrofga qarayman, ko‘cha ancha keng, fayzli, havasing keladi. Lekin bu taassurot uzoqqa cho‘zilmadi. O‘n qadam yurmasimizdan mashina yo‘ldagi sun’iy do‘nglikka duch keldi. Mashinani to‘xtatib, sekingina undan o‘tdim va endi tezlik dastagini ikkinchi bosqichga olmoqchi edim, navbatdagisi qarshimdan chiqdi. U ham avvalgisiday baland, Xitoy devori kabi mustahkam. Shu tarzda o‘ttiz-qirq hovlidan iborat berk ko‘chaning boshdan-oxirigacha yigirmadan ziyod yo‘ldagi sun’iy do‘nglikni sanadim.**

Kuzatishimcha, ko‘chada uylar namunali tarzda bir xil qilib qurilgan. Aksariyat darvozaxonalarda qimmat ulovlar saf tortgan edi. Bu yerda moddiy jihatdan o‘ziga to‘q qatlam vakillari yashashi ko‘rinib turibdi.

Bir qarashda mahallada barchasi risoladagidek. Ammo nega har qadamda sun’iy to‘siq? Bolalarni himoya qilish, mashinalar sekin yurishi uchun qilingan, deyishga shoshilmang. Nima maqsadda shunday yo‘l tutilganini yaxshi bilaman. Lekin mazkur holat odamni o‘ylantiradi. Chunki adog‘i berk ko‘chaga har zamonda biz kabi mehmon kelmasa, boshqa mashina oralamaydi. Boz ustiga, bitta yo‘l belgisi bilan istalgan haydovchini ogohlantirish mumkin.

Shu gapni o‘qib, yuzingizga istehzoli kulgi keldimi?! Demak, bunday ovloq ko‘chada aksariyat haydovchilar yo‘l belgisini pisand etmasligini yaxshi bilasiz.

Davomi 3-betda

“Yashil makon”

# KO‘CHATLAR SUVSIZLIKDAN EMAS, E’TIBORSIZLIKDAN QURIYDI

**— O‘tgan yili ham xuddi shu yerga — yo‘l chetiga daraxt ko‘chatlari o‘tqazishgandi, bu yil yana ekishdi. Bir maromda ketayotgan mashina ichidagi jimlikni otaxonning shu gapi buzdi. U ishora qilgan tomonga boqdim. Navoiy shahriga kirishdagi ko‘cha chetiga daraxt ekilgan. Qanday daraxt turi ekanini anglashga ham ulgurmadim.**

— Har yili shu ahvol. “Yashil makon” yaratamiz deyishadi, ekishadi, ammo ko‘chatlar qurib qoladi, — so‘zida davom etdi otaxon.

— Suvsizlikdanmi?

Savolimdan keyin otaxon bir muddat sukut saqlab, keyin gap boshladi.

— Suvsizlikdan emas, bolam. Buning birinchi sababi hududga mos daraxt ko‘chati ekilmagani, ikkinchi sababi esa suv bo‘lsada, parvarishning yo‘qligi. Ayrimlar ekkan daraxtlariga yil bo‘yi bir bor kelib qaramaydi. Hisobot uchun, rasmga tushish uchun ekishadi-yu, shu bilan qaytib qorasini ko‘rsatmaydi, — deydi otaxon.

Albatta, otaxonning gapida jon bor. Zero, har bir hudud o‘ziga xos iqlimga ega va unga mos daraxt turi ekilishi eng muhim jihat.

Navoiy viloyatida 2023-yilning kuzgi mavsumida 6 millionga yaqin, joriy yil bahor mavsumida 9 million tupdan ortiq turli daraxt ko‘chati ekildi. Viloyat iqlimini hisobga olib, mutaxassislar tavsiyalariga asosan, gujum, qayrag‘och, katalpa, akatsiya, zarang, shumtol, tut, jiyda, yong‘oq, uzum, terak, tol kabi daraxt va buta ko‘chatlari tanlandi.

Yangi ekilgan ko‘chatlarning har birini talafotsiz ko‘kartirib olish, o‘sib daraxt bo‘lgunicha doimiy nazorat va parvarish qilish borasida ham aniq choralar belgilangan.

O‘tgan yillarda bu borada ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlandi. Tanlangan daraxt turlari iqlimga mos kelmagan, ba’zida ko‘chat ekilayotgan maydondagi suv ta’minoti yoki daraxt parvarishi uchun yetarli sharoitlar bor-yo‘qligiga birov qiziqmagan. Endi shu jihatlar e’tiborda turibdi.

— Ko‘chat ekishda, avvalo, tuproq tarkibi, iqlim sharoiti va suv ta’minoti hisobga olinmoqda. Viloyatimiz iqlimiga, asosan, akatsiya, qayrag‘och, cho‘l hududlariga esa saksovul ko‘proq mos keladi. Ekilgan ko‘chatlar nazorati yo‘lga qo‘yilmoqda. Har bir ko‘chat “Yashil makon” platformasiga manzili bo‘yicha kiritildi. Yo‘l chetlarida ekilgan daraxtlarni maxsus transport yordamida sug‘orish yo‘lga qo‘yilmoqda. Har bir manzilda yaratilayotgan yashil hududlarga mas’ul tashkilotlar ham belgilandi, — deydi Navoiy viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Furqat Qodirov.

Davomi 2-betda

Yangicha yondashuvlar

# QISHLOQ XO‘JALIGIDA YAPONIYANING FUJIMIN TEXNOLOGIYASI

**Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan sug‘oriladigan yer unumdorligini saqlash va oshirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu masalani hal etishda tuproqni organik o‘g‘it bilan boyitish samarali usullardan. Shu bois, unumdorligi past yer sifatini yaxshilash hamda hosildorlikni oshirishda ilmiy asoslangan, suv va resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish ishlari boshlangan. Jarayonda yangi usul va texnologiyalarni qo‘llash asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Birinchi navbatda, sug‘oriladigan yerda go‘ng, gumin, biogumus kabi organik o‘g‘itlarni qo‘llash lozim.**

Prezidentimizning shu yil 13-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida qishloq xo‘jaligi mutaxassislari hamda yerdan foydalanuvchilar uchun tuproqni organik moddalar bilan boyitishga doir qator jiddiy ko‘rsatmalar berilgan. Ayni paytda samarali agrotexnologik tadbirlardan foydalanish bo‘yicha ishlar jadal sur’atda davom ettirilmoqda.

Davomi 4-betda

YULDUZLAR MANGU YONADI

# MUHAMMAD YUSUF HUDUDI

**Bahor bu yil seryog‘in keldi, yomg‘ir — rahmat suvi ko‘p va mo‘l bo‘ldi. Ona tabiat — yon-atrof — bog‘-rog‘lar gullab-yashnadi. Ayniqsa, so‘lim Toshkentning qoq markazida adabiyotga katta e’tibor va g‘amxo‘rlikning yaqqol namoyoni, betimsol ramzi sifatida qad rostlagan muzayyan Adiblar xiyoboni g‘oyat ko‘rkam manzara kasb etgan.**

Kunda-kunora yog‘ayotgan yomg‘ir go‘yo borliqni bosh-oyoq yuvib, tozalab, poklab bermoqda. Olam ozoda bo‘lib borayotir dam sayin. Yangilanish, go‘zallik fasli ko‘klam bu yil yana bir jihati bilan fayzli, sururli keldi. Doim yoshlar bilan, hayotga, sevgiga mahkam va mustahkam bog‘langan, yorug‘ va porloq orzu-o‘ylar, maqsadlarga vobasta dillar bilan, adabiyot ixlosmandlari, she’r muxlislari bilan gavjum Adiblar xiyobonida har yilgidan ham ko‘proq she’r yomg‘iri, so‘z yomg‘iri “yog‘moqda”. O‘tgan asrlar, o‘tgan zamonlardan chiqib kelib, bugun aziz umrimizga hayrat, mamnuniyat va rizolik ila qarab, kuzatib turgan ulug‘ adiblarning abadiyan barhayot siymolari huzurida nafis majlislar — suhbatlar, adabiy anjumanlar, mushoiralar davom etmoqda. Bu yerlarda she’r, so‘z, muhabbat yomg‘irlari goh mayin shivir-shivirlar, goh favqulodda gulduroslar ila “yog‘ib o‘tmoq”da.

Davomi 6-betda

Obod manzillar

# “SHIRIN”NING BETAKROR JOZIBASI

2

Dolzarb mavzu

5

**Ishsizlikni bartaraf etish maqsadida aholi, ayniqsa, ish izlab yurgan yoshlar bozorda talab yuqori kasb-hunarlar bo‘yicha malaka oshirdi. Ulardan 13 nafariga ish boshlashi uchun subsidiya berildi. Mahallabay ishlash tizimi bo‘yicha aholi orasida o‘tkazilgan o‘rganishlar va amaliy ko‘mak natijasida 119 kishi o‘zini o‘zi band etgan shaxs sifatida ro‘yxatga olindi. 261 nafarining bandligi ta’minlandi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 26-aprel, 80-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

## Islohotlar samarasi

# QALOVINI TOPGANLAR

## poytaxt sharoitida tomorqadan unumli foydalanishmoqda

**Shahar, ayniqsa, poytaxt deganda, ko‘pchiligimiz baland binolar, qulay infratuzilma, yuqori servisni tushunamiz. Aslida ham shunday. Lekin poytaxt sharoitida tomorqachilik haqida gap ketsa, aksariyatimiz “Iya, shunaqasi ham bo‘larkanmi?” deya ajablanishimiz bor gap. Poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Alisherobod mahallasiga kirib borar ekanmiz, mahallaning zamonaviylik va tabiiylik uyg‘unlashgan qiyofasini ko‘rib, xayolimizdan shu fikr o‘tdi.**

— Mahallamiz poytaxtimizning eng fayzli va yashil go‘shalaridan biri, — deydi “Alisherobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Gulchehra Ahmedova. — Hududimiz 250 gektardan ko‘proq joyni egallaydi. 23 ta ko‘p qavatli uy va 500 dan ortiq hovlida qariyb to‘rt ming kishi istiqomat qiladi. Mahallamiz hududida 6 ta fermer xo‘jaligi va issiqxonalar, hovlilarning har birida 6-8 sotix atrofida tomorqa bor. Shu bois, tomorqadan unumli foydalanishda aholiga yaqindan ko‘mak berib kelyapmiz.

Mahalla raisining aytishicha, hovlida turadigan aholining ko‘pchiligi turli sohalarda ishlaydi. Shu bilan birga, tomorqadan unumli foydalanishga ham e’tibor katta. Tomorqalarda issiqxonalar tashkil etib, yiliga ikki-uch marotaba hosil olayotganlar ham bor.

82 yoshli Muhabbat aya Iqbolovaning xonadoniga kirib borganimizda, qizg‘in ish ustidan chiqdik. U farzandlari va nabiralari bilan nastarin gullardan nafis guldastalar yasamoqda. Turmush o‘rtog‘i Sa’dulla ota bilan 8 farzandni tarbiyalab elga qo‘shgan Muhabbat aya bir umr gulchilik bilan shug‘ullangan. Shu bois, tabiatga, gulga mehri bo‘lakcha.

Onaning bu xislati bolalariga ham o‘tgan. Hozir farzandlari mazkur an’anani davom ettirib, issiqxona qurib qo‘shimcha daromad topyapti. Issiqxonalardan biriga pomidor, boshqasiga bodring ekilgan. Xonadon sohiblarining aytishicha, shu kunlarda hosil pishib yetilib, bozorga chiqarilyapti.

Ha, donolarimiz aytganidek, “Qalovini topsang, qor ham yonadi”. Alisherobodliklarni shu qalovni topganlar, deyish mumkin. Hozir mahallada tomorqasidan samarali foydalanib, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilikni yo‘lga qo‘yganlar talaygina. Mahalla faollari tomorqachilik va bog‘dorchilikni rivojlantirish, bu boradagi oilaviy qadriyatlarni davom ettirishga alohida e’tibor qaratyapti.

O‘tgan yili “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 42 oilaga imtiyozli kredit ajratildi. Natijada o‘ttizdan ziyod ish joyi yaratildi, qirqdan ortiq odam o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olindi.

“Obod mahalla” dasturi doirasida shu kunlarda mahallada bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari qizg‘in davom etyapti. Bu jarayonda ko‘chalar, uylar atrofi tozalanib, chiqindilar tashib ketilyapti. Ko‘p qavatli uylarning elektr energiyasi, issiqlik va sovuq suv tizimlari modernizatsiya qilinyapti.

Mahalla hududida bitta maktab, bitta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, 2 ta xususiy bolalar bog‘chasi faoliyat yuritadi. Hududda qator tadbirkorlik subyektlari ham tashkil etilgan. Ularda bir necha turdagi iste’mol mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bu yerda tadbirkorlik subyektlari ko‘payib borayotgani aholi bandligini ta’minlash imkoniyatini yaratmoqda. O‘tgan yili yangi tashkil etilgan ana shunday ish o‘rinlarida ko‘plab yoshlar bandligi ta’minlandi. 15 kishi kasb-hunarga o‘qitildi.

— 3 farzandim bor, ularning tarbiyasi va uy ishlaridan ortgan paytimda oilamga daromad bo‘lsin deb xonadonimda pishiriq pishirib sotardim, — deydi Umida Ziyoxo‘jayeva. — Mahalla faollari oilaviy sharoitimizni o‘rganib, “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga oldi va pazandalik faoliyatimni rivojlantirishga ko‘mak berdi. 33 million so‘m imtiyozli kredit olib, hozir mahallada bo‘sh turgan yerda kichik sex qurib ishlatyapman.

Yunusobod tumanidagi Yangibog‘ mahallasida ham aholi tadbirkorligini rivojlantirish yo‘nalishida muhim loyihalar amalga oshirilyapti. Hozir mahallada qirqqa yaqin tadbirkorlik subyekti ish yuritayotgani bu jabhadagi ishlarning o‘ziga xos natijasini namoyon etadi.

Tikuvchilik sohasida faoliyat yuritadigan “Best united colors” xususiy korxonasi shulardan biri. Ikki yil avval tashkil etilgan korxonada hozir yigirmadan ziyod xotin-qiz ish bilan band. Kasanachilik asosida ishlash korxona faoliyatining asosiy yo‘nalishi. Tabiiyki, bu ayollar bandligini ta’minlashda muhim omil. Chunki ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ishsizlikni bartaraf etishda qulay imkoniyat yaratadi. Shu bois, mazkur korxona faoliyatini yanada kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilyapti.

“Feniks art servis” mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilishi esa aholi bandligini ta’minlash bilan birga ko‘p qavatli uylarga kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda ham muhim qadam bo‘ldi. Mahallada bu borada orttirilgan tajriba boshqa hududlarda ham ommalashtirilyapti.

— Mahallamizda tadbirkorlikning ko‘plab yo‘nalishlarida yaxshi ishlar yo‘lga qo‘yilgan, — deydi Yangibog‘ mahallasidagi hokim yordamchisi Akbar Azimov. — Shu bilan birga, bu borada hali foydalanilmay turgan imkoniyatlar ham bor. Mahallabay ishlash tizimi asosida bu jihatlarni atroflicha o‘rganib, tadbirkorlikning yangi yo‘nalishlarini ochishga e’tibor qaratyapmiz. O‘tgan yili ana shunday qator loyihalar amalga oshirilib, tikuvchilik, oziq-ovqat va xomashyoni qayta ishlash, xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda yangi tadbirkorlik subyektlari faoliyat boshladi. Joriy yilda ham bu boradagi ishlar davom etyapti.

Shuningdek, ishsizlikni bartaraf etish maqsadida aholi, ayniqsa, ish izlab yurgan yoshlar bozorda talab yuqori kasb-hunarlar bo‘yicha malaka oshirdi. Ulardan 13 nafariga ish boshlashi uchun subsidiya berildi. Mahallabay ishlash tizimi bo‘yicha aholi orasida o‘tkazilgan o‘rganishlar va amaliy ko‘mak natijasida 119 kishi o‘zini o‘zi band etgan shaxs sifatida ro‘yxatga olindi. 261 nafarining bandligi ta’minlandi.

Shu taxlit mahallalarimizda har bir hududning o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish joylari yaratish borasidagi xayrli amallar davom etmoqda. Bu imkoniyat ishsizlarni ishli, qo‘lida hunari bor va o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishni orzu qilib yurgan insonlarni tadbirkorga aylantirishga zamin yaratmoqda.

**Bahor XIDIROVA,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

## Obod manzillar

**Buxoro tarixiy manzillari, ziyoratgohlari, minora-yu masjidlari bilan ma’lum-u mashhur. Vobkent tumanidagi 1500 yillik tarixga ega Shirin qishlog‘i ana shunday manzillardan biri. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida Shirin qishlog‘ida namunaviy “turizm qishlog‘i”ni tashkil etish bo‘yicha ham qator vazifalar belgilab berilgan.**

# “SHIRIN”NING BETAKROR JOZIBASI

**Qishloqda kulollik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik, gilamchilik, patdo‘zlik, temirchilik, yog‘och o‘ymakorligi, jundan ip yigirish, mato to‘qish, milliy qo‘g‘irchoqlar yasash, miniatyura san’ati, savat to‘qish, qadimiy usulda namat tayyorlash kabi yo‘nalishlarda 500 kishining bandligi ta’minlangan.**

Xo‘sh, o‘tgan vaqt oralig‘ida ko‘hna qishloqda qanday ishlar amalga oshirildi? Hukumat tomonidan berilgan topshiriq va vazifalar ijrosi qay darajada?

— Davlatimiz rahbarining 2021-yilda Buxoro viloyatiga tashrifi doirasida mazkur qishloqni etnoturizm maskaniga aylantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar uning maftunkor va ertaknamo manzilga aylanishiga asosiy zamin bo‘ldi, — deydi Vobkent tumani hokimi Farhod Umarov. — Hozir Shirin qishlog‘i etnoturizmga ixtisoslashgan. Qadimiy urf-odat va an’analar qayta tiklanayotgan ushbu hududda ko‘hna tosh tegirmonda bug‘doy va arpa uni chiqarish, katta doshqozonlarda qadimgi taomlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Aslida, sho‘rdanak, shirinliklar va hunarmandlik mahsulotlari tayyorlash mazkur qishloqda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bobo kasb sanaladi. Hozir bu yerda qishloq hayotini aks ettiruvchi qadimiy buyumlar muzeyi va milliy hunarmandlik burchaklari tashkil etilgan. Shuningdek, suvenir buyumlar do‘konlari, tarjimon va ekskursiya xizmati, qishloq atrofida joylashgan ko‘llarda baliq ovi, qadimgi sandal uylarda tandirda non yopish, sho‘rdanak va nisholda singari milliy taomlarimizni tayyorlash jarayonlarida sayyohlarning bevosita ishtirokini ta’minlashni o‘z ichiga olgan etnoturizm markazi ham faoliyat yurityapti.

Qishloqda 55 o‘rinli mehmonxona, to‘qson o‘rinli 14 ta o‘tov hamda turli do‘konlar tashrif buyuruvchilarga sifatli xizmat ko‘rsatayotir.

Hududda “Nodir Nozim ko‘li” MCHJ tomonidan baliqchilik klasteri tashkil etilgan. 20 dan ortiq mehmon uyi, 10 ga yaqin hunarmandlik markazi, yigirmadan ziyod savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchasi, baliqchilik, holvapazlik, sho‘rdanak tayyorlash kabi xizmatlar mahalliy va xorijlik mehmonlarga muntazir.

— Qishloqqa tashrif buyurgan sayyoh borki, unutilmas taassurotlar bilan qaytadi. Chunki etnoqishloqqa xos barcha jihatlar mujassam. Bu yerda miniatyura va xattotlik san’ati haqidagi tasavvurlarni boyitish imkoni ham bor, — deydi Vobkent tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari Shuhrat Sharipov. — Milliy qadriyatlarimizni sahna ko‘rinishlari orqali namoyish etuvchi “Navnihol” folklor jamoasining doimiy chiqishlari esa mehmonlarga birday manzur bo‘lmoqda.

Qishloqda kulollik, kashtado‘zlik, zardo‘zlik, gilamchilik, patdo‘zlik, temirchilik, yog‘och o‘ymakorligi, jundan ip yigirish, mato to‘qish, milliy qo‘g‘irchoqlar yasash, miniatyura san’ati, savat to‘qish, qadimiy usulda namat tayyorlash kabi yo‘nalishlarda 500 kishining bandligi ta’minlangan.

**Gulichehra DURDIYEVA,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

## “Yashil makon”

# KO‘CHATLAR SUVSIZLIKDAN EMAS, E’TIBORSIZLIKDAN QURIYDI

**Boshlanishi 1-betda**

Karmana ahli ham “Yashil makon”ning joriy yil bahorgi mavsumida faol ishtirok etdi, tumanda 1 milliondan ziyod daraxt va buta ko‘chati ekildi. Malik mahallasida yaxshi niyatlar bilan katta bog‘ yaratildi. Ushbu xayrli ishlarda nafaqat korxona va tashkilotlar, balki nuroniylar, mahallalar aholisi, yoshlar ham faol qatnashdi.

Navoiy viloyatining katta hududida Qizilqum cho‘li yastanib yotibdi. Cho‘l hududlarda o‘ziga xos yashillikni va ekotizimni ta’minlash, shamolda qum uchishi va ko‘chishining oldini olishda saksovulning o‘rni katta. Shu maqsadda viloyatning bir necha tumanlarida saksovulzor yaratishga kirishildi.

Jumladan, Nurota tumanining Adizobod qishlog‘idagi o‘rmon xo‘jaligiga tegishli 40 ming, Zarafshon shahri atrofiga 5 ming, Uchquduq tumanining Shalxar ovulidagi davlat o‘rmon xo‘jaligi tasarrufidagi 50 gektar yerga saksovul ekildi.

— Tumanimizning aksariyat hududini cho‘l tashkil etadi. Yozi jazirama, doimiy ravishda qum-chang bo‘ronlari kuzatiladi. “Yashil makon” loyihasi orqali bu kabi tabiat injiqliklariga qarshi turish va ekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin. Buning uchun hudud iqlimidan kelib chiqib, faqat saksovul ekishni ko‘paytirishga e’tibor qaratmoqdamiz, — deydi Uchquduq tumani davlat o‘rmon xo‘jaligi rahbari Ilhom Saidov.

Shuningdek, navoiylik 100 dan ortiq yosh Mo‘ynoq tumanida bo‘lib, “Orol taqdiri — kelajak avlod taqdiri” shiori ostida dengizning qurigan qismida saksovul ko‘chatlari o‘tqazish aksiyasida ishtirok etib qaytdi.

— Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti yoshlaridan tarkib topgan ko‘ngillilar ushbu aksiyada uchinchi marotaba qatnashdik. Asosiy maqsadimiz Orolbo‘yi hududlarida ekologik vaziyatni yaxshilashga hissamizni qo‘shishdir. Albatta, kelgusi mavsumlarda ham Mo‘ynoq tumaniga borib, bu xayrli ishlarimizni davom ettiramiz, — deydi Navoiy kon-metallurgiya kombinati yoshlar yetakchilari kengashi raisi Sanjar Rajabov.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yildan buyon yurtimizda 22 mingta yangi sanoat korxonasi ishga tushirilgan, shu davrda qariyb 250 mingta yangi uy-joy barpo etilgan. Hozir sanoat korxonalari va avtomobillar atmosferaga 2 million tonnadan ortiq ifloslantiruvchi modda chiqarmoqda.

Shu bois, bunday korxonalar atrofida “yashil belbog‘” yaratilishi eng maqbul yechimdir. Qolaversa, yirik ishlab chiqarish majmualari joylashgan hudud ekologiyasi haqida qayg‘urish har bir korxonaning yuksak ekologik madaniyatini, shuningdek, davlatimiz oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini anglatadi.

Navoiy viloyati sanoatlashgan hudud. Shuning uchun bu yerda “yashil belbog‘” yaratish har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Jumladan, “Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyati tomonidan korxona atrofiga 3 mingdan ziyod qayrag‘och va saksovul ko‘chati ekilib, “yashil belbog‘” yaratildi. Bundan tashqari, korxonaning sanitar-muhofaza hududidagi 11 gektar maydonda minglab daraxt ko‘chatlari o‘tqazilib, 500 kilogramm buta urug‘i sepildi. Har biri 60 tonnadan sig‘imga ega ikkita rezervuar o‘rnatilib, tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yildi.

— Sement ishlab chiqaruvchi korxonalar ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha 1-toifaga mansub. Shuning uchun eng oqilona yechim korxona atrofida yashil hududlarni kengaytirish va “yashil belbog‘” tashkil etishdir. Bu jarayon korxonaning tabiatga zararini kamaytirishga yordam beradi, — deydi “Qizilqumsement” bosh ekologi Zarif Berdiyev.

Umuman olganda, “Yashil makon”ning joriy yil bahorgi mavsumida Navoiy viloyatida atrof-muhitga salbiy ta’siri bo‘yicha birinchi va ikkinchi toifalarga kiruvchi yirik sanoat korxonalari tevaragidagi “yashil belbog‘”larga 260 mingdan ziyod va chiqindi poligonlari atrofiga 25 mingga yaqin daraxt ko‘chatlari ekildi.

Endi asosiy e’tibor ularni parvarishlash, ko‘kartirib olish va bosqichma-bosqich zarur agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish jarayonlariga qaratilgan.

**G‘olib ABDUSALOMOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

Tahlil va taqqos

# HUQUQIY TAFAKKUR HODISASI

## Yoxud taraqqiyotning o‘qildiziga nega befarqmiz?

**Boboravshan G‘OZIDDINOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

**Boshlanishi 1-betda**

Negaki biz faqat kameraga, YPX xodimiga duch kelsakkina, qoidalar esimizga tushadi. Shu bois, yo‘llarimizni sun’iy to‘siqlar bilan to‘ldirib chiqamiz. Shuning o‘ziyoq qonunlarga amal qilishda sustkash ekanimizni ko‘rsatadi. Buni kimdir qizil chiroqda o‘tishdek xatarli emas, deyishi mumkin. Ammo xalqimizning “Tomchi toshni teshadi” degan naqlini unutmaslik kerak. Ana shunday kichik qoidalarni buzaverish jiddiy qonunbuzarliklarga zamin hozirlaydi. Oqibatda jamiyatda imkoni topilsa, qonunlarni chetlab o‘tish mumkin, degan noto‘g‘ri qarash shakllanadi. Aksincha, jamiyatda huquqiy tafakkur yuqori bo‘lsa, o‘zaro hurmat, tenglik va do‘stlik munosabatlari mustahkamlanib boraveradi.

### Qonunni bilmaslik jazodan ozod qilmaydi

Qaysi jamiyatda huquqiy savodxonlik darajasi past bo‘lsa, qoidabuzarlik ko‘p uchraydi. Qonunni bilmaslik esa jazodan ozod qilmaydi. Oqibatda davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarda ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Negaki o‘zining burchini bilmagan shaxs jazoga tortilganda nohaqlikka uchradim, deb o‘ylaydi.

Bir misol, jamoat joyida tamaki chekkanlik uchun jarima bor. Ayniqsa, o‘tgan 2023-yilda shu haqdagi qonun yangi tahrirda qabul qilingach, keng miqyosda targ‘ib etildi. Ammo bundan hamon bexabarman, deydigan yurtdoshlarimiz bor. Metroning Buyuk ipak yo‘li bekati orqali ishga qatnayman. Har kuni piyodalar yo‘lagining serqatnov joyida IIB xodimlari jamoat tartibini saqlab turadi. Kunda-kunora ular aynan belgilanmagan joyda tamaki chekkanlarni jarimaga tortayotganiga guvoh bo‘laman. Qizig‘i, ularning aksariyati uzoqdan xodimlarni ko‘rsa-da, qonun buzayotgan haydovchilarday hushyorlikni oshirmaydi, tamakini bemalol tutatib kelaveradi. Chunki ular jarimaga tortilishi mumkin ekanini bilmaydi.

Bir safar ishdan qaytishda yo‘l chetidagi sotuvchi qarshisidan o‘tayotgandim. Bizdan uch qadam narida jamoat tartibini saqlashga mas’ul xodimlar o‘rta yoshlardagi kishini

to‘xtatdi. Xatosini aytgandi, u kishi ajablandi. Dastlab qonun posbonlarini yolg‘onchilikda aybladi, bo‘lmadi. So‘ng insof-diyonat haqida va’z o‘qib, qonundan bexabarligini, avval ogohlantirish kerakligini aytdi. Tasavvur qiling, u qonundan bexabar ekani uchun jazolanmadi. Keyingi safar boshqa xodimga duch kelganida yana shu vaj bilan jazodan qutilib qolmasligiga kim kafolat beradi?

Agar jamiyatda shunday tendensiya avj olsa, kim o‘rnatilgan tartiblardan xabardor ekanini aniqlash absurd hodisaga aylanadi. Endi faqat tamaki chekish emas, undan ham xatarliroq qonun buzilishlar ko‘payadi. Binobarin, jamiyatda huquqiy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishi kerak. Agar insonlar o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilsa, unga amal qilish ko‘nikmasi shakllansa, jamiyatdagi illatlar keskin kamayadi, mamlakat taraqqiy etadi. Xo‘sh, mazkur holatni soha mutaxassislari qanday izohlaydi?

— Joriy yil uchun qabul qilingan davlat dasturida qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish vazifalari yana bir bor belgilab berilgan. Bunga faqat huquqiy savodxonlik orqali erishish mumkin, — deydi yuridik fanlar nomzodi, dotsent Haydarali Yunusov. — Negaki inson huquqlari har qanday tartibotning markaziy nuqtasi hisoblanadi. Qolaversa, inson huquqlarini faqat bir kishining taqdiriga daxldor masala sifatida tushunmaslik kerak. Uning zamirida butun jamiyatga xos ijtimoiy voqelik yotadi. Birgina insonning murojaat qilish huquqini olib qarasak, u asosida davlat idoralari va fuqarolik jamiyati tuzilmalarining e’tibori muayyan bir ijtimoiy ahamiyatga molik masalaga qaratiladi. Yoki shu yo‘sinda inson huquqlarining himoyasi talab qilinadi.

Shu bilan birga, u davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Shaxsning ijtimoiy faolligi jamiyat va davlat organlariga ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Jarayon uzluksizligini ta’minlaydi. Keyingi yillarda davlat idoralariga murojaatlar keskin oshdi. Bu yaxshi. Chunki shu orqali jamiyatda tashabbuskorlik ruhi tarbiyalanadi. Inson huquqlari sohasida davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi ortadi. Zaruriy islohotlarni amalga oshirishga undaydi. Shu tariqa ko‘p qirrali va tarkibli islohotlar natijasi o‘laroq, muayyan ijtimoiy taraqqiyotga erishiladi. Bularning zamirida esa bizning o‘z huquq va burchlarimizni bilishimiz yotibdi.

Darhaqiqat, huquqiy tafakkur, qonunlarga bo‘ysunish jamiyat taraqqiyotining muhim omili. Bu kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridayoq o‘z isbotini topgan haqiqat. Jamoa bo‘lib yashash uchun ma’lum qoidalarga amal qilish talab etilardi. Shu tariqa qonun chiqaruvchi organ, jamoa sardorlari, oqsoqollar kengashi paydo bo‘ldi. Ular o‘rnatgan qonunga amal qilmaganlik uchun qat’iy jazo tayinlandi. Ya’ni qonunlarga tabiiy ehtiyoj tug‘ilgani uchun insonlar unga rioya qilish ko‘nikmasini o‘zlashtirdi.

### Targ‘ibot olib borilmoqda, ammo...

Jamiyatimizda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqish talab darajasida emas. Qiziq ziddiyat — hammamiz farovon yashashni, baxtli umr kechirishni istaymiz, lekin uning o‘qildizi bo‘lgan huquqiy savodxonlikka unchalik e’tibor bermaymiz.

Yodingizda bo‘lsa, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistning referendum haqidagi savoliga yoshi o‘ttizdan oshgan kishining: “Nima u, yomon narsa emasmi?!” degan javobi ommalashib ketgan edi. O‘sha odamning holati bir qarashda kulgili ko‘rinsa-da, nihoyatda ayanchli. To‘g‘ri, jamiyatimizda bu kabi shaxslar kam. Ammo o‘z huquq va burchlarini yetarlicha biladiganlar safini kengaytirish zarurati dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki tafakkurimizda davlat buyuruvchi, bajartiruvchi va foyda ko‘radigan yagona tuzilma, degan xato qarash shakllanib qolgan.

Hozir uni keltirib chiqargan omillar, demak, uzoq o‘tmishni muhokama qilmoqchi emasmiz. Chunki davlat dasturida ko‘rsatilgan qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish uchun jamiyatda huquqiy ongni qanday qilib rivojlantirish mumkin, degan savolga javob topish lozim.

Avvalo, yurtimizda huquqiy targ‘ibot borasidagi ko‘rsatkichlar yomon emasligini aytish kerak. Masalan, 2023-yilda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida adliya organlari tomonidan joylarda 375 mingdan ortiq targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, o‘rganishlar natijasida aholining katta qismi huquqiy bilimlarni ijtimoiy tarmoqlardan olayotgani sabab mazkur yo‘nalishga ko‘proq urg‘u berilmoqda. Rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali qonunchilikdagi yangiliklar, savollarga javoblar muntazam berib boriladi. Ya’ni xalqaro standartdagi targ‘ibot usullaridan foydalanilmoqda.

E’tiborli jihati, buning samarasi ham ko‘rinmoqda. Masalan, 2023-yil yakuni bo‘yicha yurtimizdagi qariyb 9,5 ming mahalladan 3 mingga yaqinida, aniqroq aytganda, 31,5 foizida jinoyat sodir etilmagan.

> Qaysi jamiyatda huquqiy savodxonlik darajasi past bo‘lsa, qoidabuzarlik ko‘p uchraydi. Qonunni bilmaslik esa jazodan ozod qilmaydi. Oqibatda davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarda ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Negaki o‘zining burchini bilmagan shaxs jazoga tortilganda nohaqlikka uchradim, deb o‘ylaydi.

Afsuski, jinoyatlar ko‘paygani bois, “qizil” toifaga kiritilgan mahallalar ham bor.

Ha, huquqiy bilimlarni boyitish uchun targ‘ibot olib borilishiga qaramay, jinoyatchilik keskin kamayib ketgani yo‘q. Qolaversa, hamon o‘z majburiyatini bilmaydigan, huquqlarini talab qila olmaydigan odamlar bor. Ular ham shu jamiyatda, sizu bizning oramizda yuribdi. Demak, har bir jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, huquqiy targ‘ibotda ma’lum yangiliklar qilish talab etiladi. Xo‘sh, bu borada soha mutaxassislari nima deydi?

### Fikrlar turfa, maqsad bitta bo‘lishi kerak

— Fuqarolarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash uchun ta’lim sifatini kuchaytirish, ta’limni real hayotga bog‘lash zarur. Ya’ni bola o‘rganayotgan ma’lumoti amalda borligi, o‘zi shu munosabatlar ishtirokchisi ekanining guvohi bo‘lsin, — deydi Adliya vazirligi bo‘lim boshlig‘i Dilmurod Rajaboyev. — Millionlab fuqarolarga o‘z huquqlarini talab qilishni o‘rgatish bilan birga davlat xizmatchilari, mansabdorlarning ham huquqiy tafakkurini isloh qilish zarur. Bu orqali eng quyi bo‘g‘inlargacha qonuniylikni ta’minlashda yaxshi natijalarga erishamiz, tizimda muammolar kamroq bo‘ladi, ish samaradorligi o‘sadi. Bugungi kunda aholi hayotida qanday huquqiy munosabatlarda muammolar bo‘layotganini tahlil qilib borish, shunga monand aniq va manzilli ishlash lozim.

Ijtimoiy huquqiy ong o‘lchovlaridan biri bu — insonlarning bir-biriga bo‘lgan cheklovlari va zo‘ravonlikning oldini olish. Ayniqsa, bizning jamiyatda “samosud” holatlari huquqning ongga teskari ishlaydigan ko‘rinishidir. Ijtimoiy tarmoqlarda ma’lum shaxslarni ommaviy sazoyi qilish bilan bog‘liq holatlar ham uchrab turibdi. Bular istiqbolda erkin jamiyat qurishga to‘siq bo‘ladi. Odamlarning adolatli va xavfsiz sharoitda yashashga ishonchini so‘ndiradi. Shuning uchun bu boradagi targ‘ibot va tashviqotni kuchaytirib, bunday holatlarga qarshi qat’iy kurashish kerak.

Jamiyatda so‘z erkinligi va demokratlashtirish tobora rivojlanib borar ekan, fikrlar turli-tuman, g‘oyalar har xil, ya’ni plyuralizm prinsiplari tabiiy ravishda chuqurroq singib boradi. Shu bois, yangi qabul qilinayotgan hujjatlaru islohotlarga ham ochiq fikrlar bildirilmoqda. Sog‘lom jamiyatda o‘zgarishlarni hamma ham bir xil qabul qilmasligi tabiiy. Buni to‘g‘ri tushunishni ham o‘rganishimiz kerak. Ya’ni bunday sharoitda absolyutizmni ta’minlab bo‘lmaydi.

Konstitutsiyamizda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas, deb bejiz yozilmagan. Ana shu jarayonda odamlarni birlashtiruvchi yagona vosita, mexanizm bu — qonun ustuvorligi. Ya’ni milliy g‘oya sifatida biz, huquqshunoslar aholini qonun ustuvorligi g‘oyasi atrofida birlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz. Chunki qonun odamlarning axloqiy, siyosiy qarashlaridan qat’i nazar, yagona talablarni belgilaydi. Barcha uchun majburiy me’yorlarni o‘rnatadi.

Qonun ustuvorligi esa shunday me’yorki, fikrlar xilma-xil bo‘lsa ham munosabat, yondashuv bir xil bo‘ladi. Shu bilan birga, qonun ustuvorligi turli fikrlarni ham hurmat qiladi. Muammo bir yoqlamalik bilan emas, huquqiy vositalar orqali hal etiladi.

### “O‘zbekchilik” o‘zbilarmonlikka yo‘l ochmasin

Qonun boshqalarning huquqini qanday hurmat qilishni o‘rgatish bilan birga haqqimizni talab etishga ham zamin yaratadi. Ishonasizmi, shuni bilsa ham haq-huquqini qonuniy yo‘l bilan talab etolmaydigan yurtdoshlarimiz bor. Shunday vaziyatlarda “o‘zbekchilik” degan niqob ortiga yashirinamiz. Ana shu xato tushuncha sabab qonuniy choralarni chetlab o‘tishga urinamiz.

Masalan, qoidabuzarligimiz tufayli tartib posbonlari to‘xtatsa, o‘zbekmisiz, deymiz. Kimdir haqimizni yeb ketsa, o‘ziga insof bersin, shuni deb yuzim shuvut bo‘lmasin, deya qo‘l siltaymiz. Yaqinda qiziq holatga duch keldim. Qo‘shnim hamkasbi uchun kredit oladi. Qarz oluvchi kreditni o‘z vaqtida to‘lamaydi. Oddiy qorovul bo‘lib ishlaydigan qo‘shnimning maoshi ham o‘ziga yarasha. U bor pulini shu kreditni to‘lashga sarflaydi. Ikki yil davomida maoshining yarmi birovning qarzi uchun sarf etiladi. Hamkasbi esa oradan shuncha vaqt o‘tsa ham pulni qaytarish haqida o‘ylamaydi. Qo‘shnim tang vaziyatda qolgach, yaqinlarining qistovi bilan sudga ariza beradi. Dastlabki o‘rganishdayoq aybdorlik aniq bo‘lgach, nizo tomonlar kelishuvi asosida yopiladigan bo‘ladi. Ammo bir muddat o‘tishi bilan qarz oluvchi diydiyoni boshlaydi: “Hozir moddiy ahvolim yaxshi emas, arizani qaytarib oling, pulni, albatta, to‘layman, faqat ozgina kuting”.

O‘zini chohga tashlab bo‘lsa-da, boshqaga yomonlik istamaydigan oqko‘ngil qo‘shnim bu shartga rozi bo‘lishiga bir bahya qoladi. Qo‘shnilarning maslahati, qonun posbonlari to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgani bois, arizani qaytarib olmadi. Bu kabi hodisalarga duch kelganimda doim bitta savol qiynaydi: nega shundaymiz?!

Ijtimoiy tarmoqlarda, o‘zaro suhbatlar chog‘ida mas’ullarning beparvoligi, vazifasini bajarmasligidan noliymiz. Ammo vaqti kelganida huquqimizni talab qilishni bilmaymiz. Bunday vaziyatda qo‘shnim

kabi yo‘l tutishni ma’qul ko‘ramiz. Gohida haqqimizni talab etishda ham oshirib yuboramiz, faqat o‘zimizning haqiqatimizni ilgari suramiz. Bu ham, aslida, huquqiy bilim yetishmasligidan dalolat. Bunday vaziyatlarga barham berish uchun nima qilish kerak?

— Avvalo, inson huquqlari sohasidagi ta’limni yanada kuchaytirish zarur, — deydi H.Yunusov. — Ma’lumki, bu borada mamlakatimizda va jahon miqyosida bir qator nufuzli hujjatlar qabul qilingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta’lim dasturi, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Jahon ta’lim dasturi shular jumlasidandir. Ularda inson huquqlari sohasida uzluksiz ta’lim orqali huquqiy savodxonlikni yuksaltirish ko‘zda tutilgan. Pirovard maqsad har kimning o‘z huquqlarini bilishi va ulardan foydalana olishiga erishishdir.

Ya’ni kishilar, birinchi navbatda, inson huquqlariga oid bilimga ega bo‘lishi kerak. Biroq shu bilan cheklanib qolmasdan, mazkur bilimlardan foydalana olish malakasini ham egallashi lozim. Jamiyatimizda masalaning ayni mana shu jihatida “depsinish” bor. Oddiy odamlar qonunlardan xabardor bo‘lgan holatlarda ham o‘z huquqlarini himoya qilish yoki ularni tiklash mavridi kelganda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etishda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Demak, fuqarolar ongi va xulq-atvorida huquqlardan foydalanishning amaliy ko‘nikmasini rivojlantirish zarur.

Bu borada, balki, amaliy trening kurslarini tashkil etish kerakdir. Eng muhimi, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi ilg‘or amaliy tajribalarni ommalashtirish lozim. Kimning huquqlari muvaffaqiyatli himoya qilingani yoki ularning tiklangani keng jamoatchilikka bong urib yetkazilishi kerak. Shunday amaliy natijalar fuqarolarda ishonch ruhini mustahkamlaydi. Ularni befarqlik yoki hafsalasizlik kayfiyatidan xalos qiladi, keyingi qadamlar sari ilhomlantiradi.

### Yo‘ldagi sun’iy to‘siqlar va qonunchilik

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qonun ustuvorligini ta’minlash borasida bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Ular orasida qonun ijodkorligida xalqning ishtirokini kuchaytirishdan tortib, sudlar mustaqilligi, advokatura sohasidagi o‘zgarishlargacha qamrab olingan. Chunki mamlakat taraqqiy etishi uchun qonunlar barchaga barobar kerak.

Qonunlarga tayangan jamiyat tabiiy ravishda paydo bo‘lgan, dedik. Shu bois, qonun ustuvorligi doim tabiat qonunlariga amal qilib ishlaydi. Ya’ni huquq va burchlarimiz xuddi daraxtga o‘xshaydi. Daraxtlar havoni tozalab bergani singari qonunlar jamiyatni illatlardan tozalaydi. Nihol unishi uchun tepadan nur, ildizdan suv ichishi kerak.

Qonunlar ham xuddi shunday. Qonun ustuvorligiga davlat miqyosida imkoniyat beriladi. Ularga ehtiyoj esa dastlab jamiyatning eng quyi bo‘g‘inida shakllanadi. Agar jamiyatda, oddiy odamlar orasida qonunlarni hurmat qilish hissi tug‘ilmas ekan, mas’ullardan mas’uliyatli bo‘lishni talab etish mushkul. Negaki bunday jamiyatda insonlar o‘rtasida sog‘lom munosabat kam bo‘ladi. O‘zaro hurmat kamayadi. Quyi bo‘g‘indagi mazkur oltin halqa buzilsa, xuddi men mehmonga borgan mahalladagi kabi boshi berk ko‘chalarni ham sun’iy to‘siq bilan tartibga solishga majbur bo‘lamiz.

Qiziq, bir hovuch odam yashaydigan, begonalar deyarli kelmaydigan ko‘chadagi har bir uy ro‘parasida sun’iy to‘siq bor. Bu xuddi har bir shaxs o‘zi uchun mustaqil qonun yaratib olishiga o‘xshaydi. Uyining yonidan boshqalar sekin o‘tishini istagan kishi o‘zgalarning darvozasi oldida tezlikni kamaytirmaydi. Bunday vaziyatda faqat qonun ustuvorligi qo‘l keladi.

Ha, insoniylik nisbatan kamaygan, axloqiy qoidalarga amal qilish susaygan vaqtda qonunga itoatkorlik ko‘nikmasi orqali jamiyatni barqaror ushlab turish mumkin. Shunday ekan, har birimiz huquqiy savodxonlikni puxta o‘zlashtirishimiz, qanchalik malol kelmasin, bir martalik foydamiz uchun ularni aylanib o‘tmaslikni o‘rganishimiz shart. Shundagina o‘zimiz istagan taraqqiy etgan jamiyatni qurishimiz mumkin. Zero, daraxt ildizdan quvvat olib, osmonga qarab bo‘y cho‘zadi.

**Yaponiyaning fujimin texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan suyuq bioo‘g‘itni mamlakatimiz sharoitida turli tuproq va ekin turlarida hamda issiqxonalarda sinovdan o‘tkazish, qo‘llash me’yorini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli loyihani amalga oshirish, bu jarayonda O‘zFA, ilmiy-tadqiqot institutlari, mahalliy hokimliklar va tashkilotlar hamda tegishli tashkilot va vazirliklar ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilangan.**

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 26-aprel, 80-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

## Yangicha yondashuvlar

# QISHLOQ XO‘JALIGIDA YAPONIYANING FUJIMIN TEXNOLOGIYASI

**G‘iyosjon RAHIMOV,**
*Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*

**Boshlanishi 1-betda**

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 20-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori doirasida, birinchi navbatda, gumusi kam yer maydonlarini aniqlash, monitoring qilish, tuproq unumdorligi pasayishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Agroklasterlar, yirik chorvachilik xo‘jaliklari, paxta va g‘alla yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarida qoramol go‘ngi, kelib chiqishi o‘simliklarga oid organik chiqindilar va fosforit asosida gumusga boy organik o‘g‘itlar tayyorlash va qo‘llash, alohida hududlarda biogumus tayyorlash maydonchalari tashkil qilish topshirig‘i berilgan. Tayyorlangan organik o‘g‘itlarni sifatli kimyoviy tahlil qilish, sho‘rlangan tuproq sharoitida guminli organik mineral o‘g‘itlarni qo‘llash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha innovatsion loyihani amalga oshirish kabi bir qancha muhim vazifalar ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Yaponiyaning fujimin texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan suyuq bioo‘g‘itni mamlakatimiz sharoitida turli tuproq va ekin turlarida hamda issiqxonalarda sinovdan o‘tkazish, qo‘llash me’yorini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli loyihani amalga oshirish, bu jarayonda O‘zFA, ilmiy-tadqiqot institutlari, mahalliy hokimliklar va tashkilotlar hamda tegishli tashkilot va vazirliklar ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilangan.

### Bu qanday texnologiya?

Fujimin Yaponiyaning mahalliy o‘rmon resurslaridan tayyorlangan yuqori konsentratsiyali sanaladi. U tabiatda juda oz miqdorda ishlab chiqariladigan modda. Odatda jonivor va o‘simliklarning mikroorganizmlar ta’sirida chirishidan hosil bo‘luvchi gumus tarkibida uchraydi. Tarkibida fulvokislota mavjud aksariyat materiallar xorijdagi tog‘-kon resurslaridan qazib olinadi. Bu esa atrof-muhitga zarar yetkazish va resurslarni isrof qilish ehtimoli bois, jiddiy muammo hisoblanadi. Yaponiyaning tabiatni muhofaza qilish jamiyati xorijning qazilma resurslariga tayanish o‘rniga daraxtlar payraxasi va mamlakatda ishlab chiqarilgan organik kislotalardan foydalanib, ommaviy tarzda fulvokislota ishlab chiqarish texnologiyasini yaratgan va uni dunyo miqyosida samarali joriy qilmoqda.

Fulvokislota hujayra membranalarining o‘tkazuvchanligini oshiradi. Bu esa o‘simlikning tuproqdagi ozuqa moddalarini ko‘proq olish imkonini beradi. Antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, toksinlarni zararsizlantiradi. Gumin kislotasi tuproqda yaxshi ish beradi. Tuproq ozuqa moddalarining o‘simlik bilan bog‘lanishini kuchaytiradi. Ularning o‘simlik hujayrasiga o‘tkazilishini osonlashtiradi. Aeratsiyani oshiradi. Suvni ushlab turadi. Mikroblar faolligini oshiradi va kimyoviy o‘g‘itlar ta’sirida o‘simliklarda uchraydigan stressni kamaytiradi. Temir va magniy ioni kabi fotosintez uchun zarur minerallarni kapsulaga biriktirish orqali fulvokislota o‘simliklarda minerallarni samarali o‘zlashtirishga imkon beradi.

Tuproqda oziq moddalar kutilgandan kamroq bo‘lganda fujiminni mineral o‘g‘it bilan birga sepish ham ekinlar, ham mevali daraxtlar uchun samarali bo‘ladi. Yog‘ingarchilik vaqtida sepish tavsiya qilinmaydi. Chunki yomg‘ir vaqtida qo‘llaganda yomg‘ir suvi bilan yuvilib ketishi mumkin. Fujimin tuproqqa sepiladi. Shu bilan birga, uni vegetatsiya davomida hamda o‘simlik va mevali daraxtlar changlanishi yaqinlashganda sepish, purkash samara beradi.

Fujimin suyuq bioo‘g‘itini qo‘llash uch variantdan iborat. Birinchisi, fujimin gektariga litr hisobida bir marta purkaladi. Ikkinchisi, gektariga 1,5 litr nisbatida ikki marta purkaladi. Uchinchisi, gektariga 2-2,5 litr hisobida ikki marta purkaladi.

Fujimin texnologiyasi qo‘llangan variantlarda tuproqdagi gumus miqdori pomidorda 0,988-1,002, bulg‘or qalampirida 1,032-1,011, tarvuzda 0,953-0,905, g‘o‘zada 1,029-1,023, makkajo‘xorida 1,073-1,091 foizni tashkil qilgan. Ushbu texnologiya qo‘llanmagan (nazoratda) variantlarda esa o‘rtacha 0,901-0,918 foiz ko‘rsatkichi aniqlangan. Shuningdek, tuproqdagi umumiy hamda harakatchan azot shakllari ham fujimin qo‘llanmagan variantlardagidan o‘rtacha 30-40 foizgacha ko‘p bo‘lishi kuzatilgan.

### Ekologik toza mahsulot kafolati

Hozir vitamin va minerallar yetarli darajada iste’mol qilinmasligi natijasida homilador ayollar homilasi va bolalarda ratsional o‘sish, aqliy rivojlanishda ortda qolish holatlari, kattalarda esa qandli diabet, yurak-qon tomir, endokrin, xavfli o‘sma kabi erta o‘limga olib boruvchi kasalliklar rivojlanishi aniqlangan. Ayollar homiladorligi vaqtida bola to‘g‘ri rivojlanishi, immun tizimi va miya faoliyati shakllanishi uchun kalsiy yod (150-250 mkg), D vitamini (10 mkg), foliy kislotasi (400 mkg), temir (30 mkg) va to‘qimalarga boy boshqa mahsulotlarga talab yuqori bo‘ladi.

UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, 2 milliardga yaqin odam mahsulotlar tarkibida vitamin, minerallar yetishmasligi sababli yuqori aqliy hamda psixologik salohiyatga ega bo‘lmaydi. Oxirgi 10 yilda dunyoning ko‘plab agrolandshaftlari turli kimyoviy moddalar bilan ifloslangani holatni murakkablashtiradi. Sababi, bu moddalar atrof-muhit, tuproq orqali suv va o‘simlikka o‘tadi. Birgina misol: tarkibida 5-7 foizgacha nitrat bo‘lgan sabzavot iste’mol qilinganda inson hujayra va organlarining kislorod bilan ta’minlanish darajasi pasayib ketadi. Natijada havo yetishmasligi tufayli hansirash, qon bosimi tushishi, jigar faoliyati buzilishi, jismoniy va aqliy faollik susayishi kabi holatlar kuzatiladi. Ochiq dalada yetishtirilgan sabzavot ekinlaridagi nitratning ruxsat etilgan, mumkin bo‘lgan maksimal darajasi o‘rtacha hisobda kartoshkada 250, ertaki karamda 900, sabzida 400, pomidorda 150, bodringda 150, piyozda 80, qovunda 90, tarvuzda 60 mg/kg bo‘lishi tavsiya qilinadi.

Yaponiyaning fujimin texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan organik suyuq preparatlar Jizzax viloyati Arnasoy tumani, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi turli tuproqlar sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlari vegetatsiyasining turli bosqichida qo‘llangan. Mazkur texnologiya ochiq dalada sinovdan o‘tkazilganda yetishtirilgan sabzavot va poliz ekinlari tarkibidagi zararli nitrat miqdori ruxsat etilgan maksimal normadan pastligi aniqlangan. Shuningdek, ular juda foydali A, E, K, C, B vitaminlariga boyligi hamda temir, kaliy, magniy, fosfor elementlariga to‘yinishi kuzatilgan. Mazkur texnologiyaning qo‘llanishi ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bilan birga, avvalo, tuproq unumdorligi ortishi, sho‘rlangan yerning kamayishiga xizmat qiladi.

### Tuproqda suv va namlikning saqlanishi

Hozir paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va tarkibini yaxshilash, shu asosda namlikni belgilangan me’yorda ushlab turgan holda isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik g‘oyat muhim. Ushbu chora-tadbirlarni qo‘llash natijasida tuproqdagi namlik darajasi keyingi sug‘orishgacha yetarli miqdorda bo‘lishi ta’minlanadi. O‘simliklarning tuproqdagi ozuqa moddalari minerallarni optimal darajada olishiga imkon yaratadi, sizot suv ko‘tarilib, sho‘rlangan yerning sho‘rlanish darajasi kamayadi. Tuproq buferizatsiyasi yaxshilanib, agregatsiyasi tezlashadi. Natijada ildiz tizimi rivojlanadi.

Fujimin texnologiyasini turli tuproq va ekinlar sharoitida qo‘llash aynan yuqoridagi fiziologik va biologik holatlarni hisobga olgan holda tavsiya qilingan. Bu preparat qo‘llanganda tarkibidagi fulvokislota va guminokislota tuproq hamda o‘simlikning hujayra membranalarini oshirishda faol ishtirok etib, ildiz tizimidagi kapillyar naychalar faolligini oshiradi. Ularning tuproqda samarali ish berishini ta’minlaydi. Shu asosda tuproqdagi suv va namlikni ushlab turishga sabab bo‘ladi. Qolaversa, fulvokislotalar tuproqda murakkab, tezkor bog‘lamalar hosil qilib, o‘g‘it va minerallarning nisbatan samarali so‘rilishiga yordam beradi. Ushbu organik bioo‘g‘it qo‘llangan yerda o‘simlik barglari, yaproqlari yirik-yirik rivojlanib, fotosintez jarayoni o‘tishiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu tariqa ilmiy asoslangan tahlillar bo‘yicha hosildorlikning oshishini kafolatlaydi. Faqat ushbu o‘g‘itni hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos holda, tavsiyalar asosida belgilangan me’yor hamda o‘z vaqtida to‘g‘ri qo‘llash lozim.

Sho‘rlangan, unumdorligi past (gumus miqdori kam), sizot suv yaqin joylashgan tuproqda osmotik bosim ortib, yerdagi namlik hamda ko‘chatlar tomiri orqali oziq moddalarni olish hajmi pasayadi. Natijada namlik va suvni yetarli darajada ololmasligi tufayli yangi ekilgan yosh ko‘chatlarning fiziologik va biologik jarayoni buzilib, qurib qolishiga sabab bo‘ladi.

Fujimin texnologiyasi qo‘llanganda daraxt va butalar tuproqdagi yaxshi saqlangan namlik va suvdan optimal foydalanib, tezroq ildiz otadi. Qurib qolmay, jadal o‘sib rivojlanadi. Bu texnologiya mamlakatimizning sho‘rlangan, tarkibi buzilgan toshloq, qumoq tuproq sharoitida hamda turli ekinlarda qo‘llanib, sinovdan o‘tkazilgan.

Hozir global iqlim sharoitiga mos daraxt va butalarni ekib o‘stirishda eng kerakli agrotexnologiyalardan biri bo‘lgan sug‘orishda turli muammolarga duch kelinmoqda. Buning asosiy sababi ko‘kalamzorlashtirishda maqbul sug‘orish tizimi ishlab chiqilmaganidadir. Fujimin texnologiyasini qo‘llash asosida yangi ekilgan daraxt va butalar biologiyasini hisobga olib, ularning tez tomir otib, baravj rivojlanib ketishiga erishish hamda ekishda namlantirish chuqurligi, har bir tup daraxtga sarflanadigan suv va mineral o‘g‘itlar miqdorining o‘z vaqtida berilishi kabi shart-sharoitlarga bog‘liq sug‘orish muddatlari, me’yorlarini ishlab chiqish mumkin.

**Yoshida KAZUYA,**
**“Yaponiya tabiatni muhofaza qilish muhandislari” jamiyati atrof-muhit va yashil muhit biznes bo‘limi boshlig‘i:**

— Biz mamlakatingizga dastlab 1300 gektar maydonda yer degradatsiyaga qarshi va yer unumdorligini oshirish uchun Fujimin texnologiyasini olib keldik. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasida cho‘llanishga qarshi yangi loyihani amalga oshiryapmiz. Yurtingiz umuman, qishloq xo‘jaligida yangi loyihalarni tatbiq etish uchun yangi hamkorlar topish va shu yo‘nalishdagi ishlarga o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.




### Ko‘kalamzorlashtirish — “Yashil makon” taraqqiyoti

Ona tabiatning o‘pkasi bo‘lgan yashil hududlarni kengaytirish, ko‘kalamzorlashtirish dolzarb masalalardan. Bu yil bahorda “Yashil makon” loyihasi doirasida 125 million tup ko‘chat ekish mo‘ljallangan. Bu jarayonda, birinchi navbatda, sizot suv yer sathiga yaqin maydonlarning sho‘rlanish darajasini pasaytirishga xizmat qiluvchi daraxtlar ekib o‘stirish zarur. Ular ildizi va barglari orqali sho‘rlangan yer osti sizot suvini bug‘lantirish xususiyatiga ega. Shuning uchun bunday daraxtlarni o‘stirish uchun biodrenaj usulini qo‘llash lozim.

Joriy yilning 29-martida “Yashil makon” loyihasi doirasidagi ishlarni sifatli bajarishga bag‘ishlangan videoselektorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridan boshqa aksariyat viloyat va tumanlarda daraxt ekiladigan joylar haligacha belgilanmagani, sug‘orish va ko‘chatga mablag‘ ajratilmagani qayd etildi. Vazirlar Mahkamasida bu masala tanqidiy ko‘rib chiqilib, viloyatlardagi sohaga mas’ul mutasaddilar va tashkilot rahbarlariga intizomiy jazo qo‘llangani ta’kidlandi. Daraxt ekishni ommalashtirish bo‘yicha tashabbus va targ‘ibot yetishmayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

“Yashil makon” doirasida hududlarda turli tuproq-iqlim sharoiti hamda ekilayotgan ko‘chatlarning o‘ziga xos xususiyatlari (daraxt, buta navlari, biologiyasi, suvga talabi, sug‘orish muddati va hokazo)ga ko‘ra, ilmiy asoslangan sug‘orish tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, turli tuproq sharoiti (bo‘z taqir, qumoq, toshloq kabi) va namlik darajasi juda past yerlarga ekilayotgan daraxt va butalar qurib qolish muammosiga duch kelinmoqda. Buning asosiy sababi ko‘kalamzorlashtirishda maqbul sug‘orish tizimi ishlab chiqilmaganidadir. O‘tgan yili 10 milliondan ortiq yangi ekilgan ko‘chat qurib, nobud bo‘lgani fikrimizni tasdiqlaydi. Yangi ekilgan daraxt va butalar navi, biologiyasi, o‘suvchanligi, tomir otishi, ekishda sarflanadigan suv sarfi kabi shart-sharoitlarga bog‘liq holda zudlik bilan ilmiy asoslangan sug‘orish muddati va me’yorlarini ishlab chiqish zarur.

Hozir mamlakatimizdagi ekologik muammolarga aniq tizimli yondashuvlarni hisobga olgan holda fujimin texnologiyasi qo‘llanishi ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bilan birga tuproq unumdorligini oshirish va sho‘rlangan yerlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu asosda kelajak avlodning barkamol, sog‘lom o‘sib-rivojlanishiga, katta yoshdagi millionlab odamlarning iste’mol mahsulotida mineral va vitaminlar yetarli darajada bo‘lib, salomatligi mustahkamlanishiga hissa qo‘shish mumkin.

Oxirgi ikki yilda Toshkent davlat agrar universiteti va Tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari ushbu texnologiyani turli tuproq va ekinlar, jumladan, mevali daraxtlarda qo‘llagan. Har qanday turdagi o‘g‘itni qo‘llashdan oldin tuproq xususiyatini tahlil qilish, bu jarayonda tuproq namligi 40-50 foizdan kam bo‘lmasligi hamda o‘g‘it me’yori va qo‘llash muddati iqlim sharoitiga moslashtirilganda samara berishi kuzatilgan. Fujimin texnologiyasini mamlakatimizda tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orishda tajribadan o‘tkazish to‘g‘risida takliflar berilgan.

Hozirgi vaqtda sug‘oriladigan yerda degradatsiyaga qarshi kurashish, sho‘rlanishni kamaytirish, tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirish, ekologik toza sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirish, “Yashil makon” loyihasidagi muhim vazifa va yangi tashabbuslarni amalga oshirish kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ayniqsa, daraxt ekishga qaratilgan umummilliy loyihani amalga oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Yuqoridagi masalalarni hal etishda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy qilib, samaradorlikni oshirish sohaning zamonaviy asosda rivojlanishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham yangi usul va yondashuvlar, ilm-fan asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

**FUJIMIN TEXNOLOGIYASI QO‘LLANGANDA:**

1. O‘g‘itlar o‘simlik tomonidan tezroq so‘riladi.
2. Tuproqning PH buferatsiyasi yaxshilanadi.
3. Tuproqning sho‘rlanish darajasi kamayadi.
4. Fotosintez uchun optimal sharoit yaratiladi.
5. Qurg‘oqchilikka chidamliligini oshiradi.

**Fujimin suyuq bioo‘g‘itini qo‘llash uch variantdan iborat. Birinchisi, fujimin gektariga litr hisobida bir marta purkaladi. Ikkinchisi, gektariga 1,5 litr nisbatida ikki marta purkaladi. Uchinchisi, gektariga 2-2,5 litr hisobida ikki marta purkaladi.**



Dolzarb mavzu

# “PLASTIK” FIRIBGARLIK

## Virtual immunitet — undan eng samarali himoya

**Universitetning 2-kurs talabasi edik. O‘quv yili oxirlab, sinovlar yaqinlashayotgan palla. Hamma kursdoshlar imtihon qayg‘usida, qoldirilgan darslarni qayta topshirish bilan andarmonmiz. Lekin bu orada bir kursdoshimiz nimagadir o‘qishda ko‘rinmay qoldi. Avvaliga kasal bo‘lsa kerak, degan xayolda yurdik. Biroq oradan 10 kun o‘tdi ham darak yo‘q — haligi xayol xavotirga aylandi. Xabarlashdik. Kursdoshimizning umuman kayfiyati yo‘q. Endi o‘qishga bora olmasam kerak, deydi.**

**Jonibek ALIJONOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

Nima bo‘ldi ekan? Hammamizda har xil taxmin: sababini bilgimiz kelardi. Oxiri bir amallab davramizga chaqirib oldik. Aniq bo‘lishicha, sho‘rlik kursdoshimiz uydagilari kontraktga deb kartasiga yuborgan pulni firibgarlarga o‘g‘irlatib qo‘yibdi. Qilgan ishi — telegramdan kelgan “sovrinli o‘yin”ga qatnashib, so‘ralgan joyga telefoniga kelgan maxfiy kodni kiritgan. 10 daqiqa o‘tar-o‘tmas kartadagi puldan bir tiyin ham qolmabdi. Yil oxiri emasmi, kontrakt pulini to‘lash muddati ham juda kam qolganini bilgan kursdoshimiz meni baribir o‘qishdan chetlashtirishsa kerak, deb o‘ylagan.

Bu kundalik hayotimizda uchrab turadigan voqealardan bittasi, xolos. Ommaviy axborot vositalari qancha ko‘p yozmasin, faollar aholini ogohlantirib, qancha bong urmasin, aksariyatimiz shunday firibgarliklar qurboni bo‘lishda davom etyapmiz. Nega? Sizning ham aqlingizga dastlab virtual bilimimiz sayozda, soddamiz, degan javob kelsa kerak. Biroq har doim ham shular sababmi? Firibgarlar kun sayin yangidan yangi usullar o‘ylab topmoqda. Ularning ko‘pchiligi esa odamlarning nafsini qitiqlashga asoslanadi.

### Nafs qursin-a...

Men bilgan aksar odam “Falon do‘konda falon aksiya ekan”, “Falon brend mahsulotini falon foiz chegirmada xarid qiling” qabilidagi firibgarlik havolalariga chuv tushgan. Nafs kimda yo‘q? Kim ham kam sarflab, ko‘p olishni istamaydi? Donishmand xalqimiz topib aytgan: “Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur?”. Firibgarlar mablag‘ingizdan oldin nafsingizning boshqaruvini qo‘lga kiritadi. Eng qiyini va muhimi ham shu-da!

Ko‘p bo‘lmadi, bir tanishim ikkinchi marta “xakerlar”ga pulini oldirib qo‘ygani haqida gapirib qoldi. “Og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi”, birinchisi dars bo‘lmadimi desam, 10 foizli kredit haqida yozilgani aqlini shoshirib, kredit beramiz, deb aldashmasa kerak, deya o‘ylaganini aytdi. Men esa unga “Markaziy bankning ham kredit stavkasi bundan baland, kim sizga zarariga kredit berardi, hech yo‘qsa, shuni o‘ylab ko‘rmadingizmi?” mazmunida tanbeh bergan bo‘ldim.

> **Ijtimoiy tarmoq uslublariga ijtimoiy tarmoq imkoniyatlari bilan qarshi turishimiz kerak. Ya’ni bu borada ogohlikka chorlovchi kontentlarni yanada ko‘paytirish, firibgarlikning yangi turlari haqida doimiy, o‘ziga xos shaklda ogohlantirib turuvchi platforma bo‘lishi zarur. Toki shunday holatga duch kelgan odam buning firibgarlik ekanini darhol anglasin.**

Rostdan ham bugun firibgarlik turi urchigandan urchidi. Yana bir xabar: firibgarlar sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalanib, odamlarni yaqinlarining ovozi bilan aldab, pulini o‘marishyapti ekan. Ya’ni qanday? Ular dastavval biror qarindoshingizga qo‘ng‘iroq qilib, shunchaki ovozini yozib oladi, so‘ngra bu ovozni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlab, o‘zi istagan matnni xuddi shu ovozda “gapirtiradi”. Tasavvur qiling, biror yaqiningiz qo‘ng‘iroq qilib, baxtsiz hodisaga uchraganini, unga shoshilinch pul zarurligini aytdi. Siz nima qilasiz? Qarindoshingizga bisotingizdagi borini yuborasizmi? Lekin bu ishlardan o‘sha qarindoshingizning umuman xabari yo‘q, balki bu paytda u uyida uxlab yotgan bo‘lishi mumkin. Shu kabi holatlarda oqni qoradan ajratish uchun qanchalik kuchli immunitet kerak?!

### “To‘r”ning turi ko‘paymoqda

Hozirgi kunga kelib, ijtimoiy tarmoq orqali “Men falon mamlakatdagi falon qarindoshingizning advokatiman, qarindoshingiz farzand ko‘rmay dunyodan o‘tdi, u o‘limi oldidan butun merosini O‘zbekistondagi yagona qarindoshiga, ya’ni sizga qoldirishni vasiyat qildi” qabilidagi firibgarlik shakllaridan ko‘pchilik “immunitet” bilan himoyalangan. Lekin bu immunitet paydo bo‘lguncha ozmuncha yurtdoshimiz chuv tushdimi?! Bunga yillar talab etildi. Xo‘sh, kunora yangi turi paydo bo‘layotgan firibgarliklarning har biriga immunitet hosil qilish uchun bizga yillar kerak bo‘lsa, yo‘qotishlarning salmog‘ini o‘ylash ham qo‘rqinchli. Bizga umumiy immunitet kerak, lekin uni qanday shakllantirish mumkin?

— Umumiy immunitetni shakllantirish oson kechmaydi. Sababi, oldimizda sun’iy intellekt orqali aldashning yangidan yangi usullari kutib turibdi, — deydi filologiya fanlari doktori, jurnalist Beruniy Alimov. — Bulardan himoyalanishning birgina chorasi mediasavodxonlikni rivojlantirish, uni targ‘ib qilishdir. Boshqa yo‘li yo‘q. Mediasavodxonlikni kim rivojlantiradi? Shubhasiz, jurnalistika. Jurnalistlar bu haqda ko‘p gapirishi, odamlarni ogohlikka chaqirishi hamda faktcheking madaniyatini yanada keng targ‘ib qilishi kerak. Ana shundagina talafotlarni sezilarli kamaytirish mumkin, deb o‘ylayman.

### Qonunchilik nima deydi?

Virtual firibgarlik ijrochilarini aniqlashning ko‘p hollarda imkoni yo‘q. Sababi, firibgarlar kamdan kam vaziyatda o‘zi yashayotgan mamlakat odamlariga “hujum qiladi”. Pullaringiz yechilganidan xabar topguningizga qadar ular allaqachon bir necha mamlakatlarda ochilgan hisobraqamlardan o‘tib, izsiz g‘oyib bo‘lishga ulguradi. Biroq bu firibgarlar aniqlansa-chi? Masalan, ular mamlakatimizda turib fuqarolarni chuv tushirdi, deylik. Ularga qanday jazo ko‘riladi? Qonunchilik bu haqda nima deydi?

Jinoyat kodeksida firibgarlik axborot tizimidan, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining **uch yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha** miqdorda jarima yoki **ikki yildan uch yilgacha** axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda **besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish** bilan jazolanishi belgilangan. Fikrimizcha, qonunchilik institutlari mazkur javobgarlik yukini yanada oshirish masalasini qayta ko‘rib chiqsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Masalan, AQSHda firibgarlik uchun 20 yilgacha qamoq jazosi bor. Mahkum ozodlikka chiqqandan keyin ham ko‘plab imtiyozlardan foydalana olmaydi. Xitoyda ham jazo choralari kuchli.

Savol tug‘iladi: jazoni kuchaytirish bilan qanday natijaga erishish mumkin? Tasavvur qiling, ekinni tinmay hasharotga qarshi dorilayapmiz-u, hasharot kelishini kamaytirishga harakat qilmayapmiz? Unda doridan ne naf — hafsala ham, qiziqish ham so‘nadi, befarqlik kuchayadi.

### Tekshirishni o‘rganaylik

Yuqorida faktcheking madaniyatini rivojlantirish haqida gapirdik. To‘g‘risi, bu haqda ko‘p gapirildi. Unda natija nega kutilganidek emas? Faktchekingni bilmaslik tufayli kunda-kunora virtual qurbonliklarni eshityapmiz. Yaqinda bir kishi ijtimoiy tarmoqdagi qandaydir loyihaga ancha mablag‘ini tikib yuboribdi. Beribdi-yu, shu zahoti ular tomonidan bloklanibdi. Nima bo‘libdi o‘zi desangiz, haligi akkaunt mashhur xayriyachi vatandoshimiz nomidan ochilgan ekan. Soxta reklama videosining oxirida esa o‘sha mashhur insonning boshqa loyiha haqida aytgan “loyihada, albatta, ishtirok eting” mazmunidagi parchani ulab qo‘yishibdi. Haligi tanishimiz “Mana, ishonchli odam aytgan ekan-ku, bunga ishonsa bo‘ladi”, deb hech qayerni tekshirmay, pulni o‘tkazaveribdi. Shu nuqtada o‘ylab qoldim — yurtdoshlarimiz orasida sun’iy intellektsiz ham aldash mumkin bo‘lganlari juda ko‘pchilikni tashkil etadi.

### Internet — bozor, axborot — mahsulot

Ijtimoiy tarmoqlar hozir faqat ko‘ngilochar joy emas, allaqachon millionlab sotuvchi “ro‘zg‘or tebratayotgan” ulkan bozor hamdir. Ularning orasida to‘g‘ri ham, o‘g‘ri ham bisyor. Bori borini, yo‘g‘i orini sotib kun ko‘ryapti. Biroq qobildan mug‘ombirining sanog‘i ortiqroq. Ya’ni bu bozorda an’anaviy bozorda yurgandan ko‘ra hushyorroq bo‘laverish kerak.

An’anaviy bozorda tovlamachi sizga yaroqsiz molini o‘tkazishi uchun eng kamida unga xaridor bo‘lishingiz, molining hech yo‘qsa bahosini so‘rashingiz kerak. Ammo internetda bir nazar solishning o‘zi kifoya.

Masalan, yaqinda telefon xarid qilish uchun bir internet-do‘konning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini kuzatib, o‘zimga ma’qul kelgan reklama postiga yoqtirish tugmasini bosdim. Oradan yarim soat o‘tar-o‘tmas bir notanish akkaunt egasi menga xabar yuboribdi. Qarasam, xuddi o‘sha kaminaga yoqqan telefon bozordagidan 30 foiz arzon narxda sotilishi haqidagi e’lon. Uning oxirida “Buyurtma berish uchun ushbu havolaga kiring”, deb yozilgan. Hushyor tortdim, avval tekshiray-chi. Rostdan ham bunday nom bilan rasmiy faoliyat yurituvchi hech qanday internet do‘kon yo‘q. Agar tekshirib ko‘rmaganimda, men ham hozir boshimni changallab o‘tirgan bo‘larmidim! Aytgancha, u menga shunday telefon kerak ekanini “yoqtirish” belgisini bosganimdan bilgan.

Maqolani yozish davomida aynan virtual firibgarlik haqida eshitganim bir nechta hayotiy hikoya yodimga tushdi. Ulardan ayrimlarini sizga ilindim.

### Na kulishni, na yig‘lashni bilasan

*(Taksichining hikoyasi)*

— Yarim yilcha ilgari Facebook orqali bir odamdan xabar keldi. Chet ellik ekani aniq, avvaliga quyuq so‘rashib, tanishdi. So‘ng ota-bobosi o‘zbek ekani, farzandlari yo‘qligini, o‘limi oldidan merosini ota-bobolari yurtining odamlariga qoldirib ketishini yozdi. Aytishicha, izlab-izlab meni topibdi. Firibgar ekanini ko‘nglim sezdi. Lekin yozishaverdik. Suhbat bank uchun sug‘urta pulini unga yuborishimga yetdi.

Telefonga berilib ketganimni ko‘rib, bir payt bundan rafiqam xabar topib qolsa deng. Buncha pulni eshitib, yuboraylik, yuboraylik, deb xarxashani boshladi. Bularga ishonmaslik kerak, desam ham ko‘nmaydi. Men ham nima bo‘lsa bo‘lar deb, mashina olish uchun yig‘ib yurgan pulimdan 10 million atrofidagi pulni bir amallab ularga yubordim. Ssenariy xuddi kutganimdek bo‘ldi. Avvaliga arazdan gaplashmay yurgan rafiqam endi uyatdan 3-4 kun gapirolmay yurdi.

### “Har oy kredit to‘laguncha eslayman...”

— Ish izlab yurgan paytlarim edi, — deya hikoya boshlaydi yana bir tanishim. — Bir kuni kechqurun ijtimoiy tarmoqda ish bo‘yicha e’longa ko‘zim tushib qoldi. Mazmuniga ko‘ra, uyda o‘tirib ishlanadigan, kuniga yaxshigina daromad topsa bo‘ladigan ish. Nima bo‘lsa bo‘lsin dedim-u, havolaga kirdim. Tushunishimcha, savdo agenti sifatida faoliyat yuritaman. “Eplayman”, deb hamma ma’lumotlarni kiritdim. Lekin karta ma’lumot so‘ramadi. Aynan shu narsa menda ishonch paydo qildi — firibgarlar, asosan, kartani ulash orqali o‘maradi, demak, bu rost bo‘lsa kerak, deb o‘yladim.

Bir qarasam, pochtamga xabar kelibdi, unda ishga qabul qilinganim, ammo ishni boshlashdan oldin ozroq depozit kiritishim, bu depozit vaqt davomida o‘sib borishi aytilgandi. Shubhadan asar ham yo‘q, ammo cho‘ntakda mablag‘ ham yo‘q. Tavakkal dedim-u, bankdan mikroqarz olib, haligi “depozit”ni to‘ldirdim. To‘lov amalga oshdi-yu, ular meni “qora ro‘yxat”ga ravona qildi. Haligi kreditni esa hozirgacha to‘lab kelyapman.

### Nima qilish kerak?

Odamlarga mediasavodxonlikni o‘rgatmay turib, raqamlar kamayishini kutish befoyda, nazarimda. Xo‘sh, buni qanday qilish mumkin, takliflaringni bildir, dersiz.

Eng avvalo, ijtimoiy tarmoq uslublariga ijtimoiy tarmoq imkoniyatlari bilan qarshi turishimiz kerak. Ya’ni bu borada ogohlikka chorlovchi kontentlarni yanada ko‘paytirish, firibgarlikning yangi turlari haqida doimiy, o‘ziga xos shaklda ogohlantirib turuvchi platforma bo‘lishi zarur. Toki shunday holatga duch kelgan odam buning firibgarlik ekanini darhol anglasin.

Ikkinchidan, ko‘chalarda, ya’ni tashqi reklama obyektlarida ham bu boradagi materiallar yanada ko‘proq namoyish etilishi lozim. Hozir bunday ogohlik reklamalariga har doim va har qayerda ham duch kelavermaymiz.

Uchinchidan, mediasavodxonlik ta’lim muassasalarida maxsus soat sifatida o‘qitilishi ayni muddao bo‘ladi. Ayniqsa, shaxsiy kartasiga ega hamda oz bo‘lsa-da, daromadi bor talabalar orasida bu tashabbusni amalga oshirish juda muhim. Bunday soatlar maktablarda ham joriy etilishi esa nur ustiga a’lo nur.

Qilinishi lozim bo‘lgan ishlar talay, bugungi holat esa ularni tezroq amalga oshirishni taqozo etadi. Aks holda, bunday firibgarliklar qurbonlari soni ko‘payaveradi, ko‘payaveradi...

Yuksalish pallasi

# TOKAYGACHA “bizga bo‘laveradi”?

**Ko‘pgina kashfiyotlar tasodifan yuzaga kelgan. Daraxtning tagida o‘tirgan Nyutonning boshiga olma tushadi, buning natijasida olim butun olam tortishish kuchi qonunini kashf qiladi.**
**Olim Aleksandr Fleming zamburug‘dagi penitsillin moddasi u sinov o‘tkazayotgan bakteriyali moddaga tushib qolganini ko‘radi. Mikroskop yordamida kuzatib, penitsillin bakteriyalarni o‘ldirib borayotganini anglaydi va antibiotik dorilarni yaratadi.**

Termizlik Mashhurbek ham katta yo‘l yoqasidan narigi tomonga o‘tish uchun yer osti yo‘lagini izlayotgan ko‘zi ojiz yo‘lovchini kuzata turib, oddiy hassani “aqlli” hassaga aylantirishga bel bog‘laydi, uni ukasi va singlisi ko‘magida yaratadi.

Turli davrlarga oid bu hikoyalarni rad etuvchilar ham oz emas, lekin ko‘pchilik ularga ishonadi. Ushbu kashfiyotlarni birlashtirib turuvchi bir jihat bor: qayerdaki ilm-fanga e’tibor yuksak, insonlar tafakkurida aql-zakolik va bilim ortidan dunyoqarashlarda evrilishlar yuz berayotgan bo‘lsa, shu kabi yaratilishlar yuzaga kelaveradi.

Mashhurbek Qarshiyev — Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi. Ukasi Abdumalik Termiz shahridagi ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchisi. Singlisi Muharram mental arifmetikadan chuqur bilimga ega.

Yosh innovatorlarning kashfiyoti bir qaraganda, tasodifan yuzaga keldi. Ular uchchovlon yo‘l bo‘ylab ketishar ekan, keksa yoshli ko‘zi ojiz kishini yetaklab borayotgan qizchaga e’tibor qildi.

— Yo‘lning kesib o‘tish qismlarida joylashgan svetoforlar ovozli bo‘lishi kerak. Ko‘zi ojizlar svetoforning qaysi chirog‘i yonganini birovning yordamisiz anglay olmaydi, — dedi biri.

— Yo‘lni kesib o‘tish niyatida bo‘lgan ko‘zi ojiz inson yo‘l yoqasiga kelganini sezmay qoladi. Yoki yo‘l chetidagi asfaltlarda maxsus qoplamalar qilish kerakmikan? Qoplamalar ko‘zi ojiz insonga yo‘l boshlanganini bildiradi, — dedi boshqasi.

Keyin ularning e’tiborini keksa kishining hassasi tortdi. Eng maqbul yo‘l — ming yillardan buyon ko‘zi ojizlarga ko‘makchi hassaga innovatsion uslublarni qo‘llash.

Yoshi kattalardan maslahat so‘rashgan edi, “Bizga bo‘laveradi”, deyishdi. Bu gap esa yoshlarning hamiyatiga tegdimi, bajonidil ixtiroga kirishishdi va uddalashdi.

Aka-uka Mashhurbek va Abdumalik Qarshiyevlar hamda ularning singlisi Muharram oddiy hassani innovatsion “aqlli” hassaga aylantiradigan noyob qurilma yaratdi. Bu ko‘rish qobiliyati bo‘yicha nogironligi bor insonlarga ko‘proq mustaqil harakatlanish va jamiyat hayotida ijtimoiy faol bo‘lishga yordam beradi.

Dastlab termizlik iqtidorli yoshlar UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan “ImkonLab” — ijtimoiy innovatsion tadbirkorlik dasturi doirasida o‘z jamoasini tuzdi.

Mazkur dastur O‘zbekiston yoshlari uchun tadbirkorlikda yangi yechimlarini taklif qilish orqali jamiyatdagi muammolarni aniqlash va ularga yechim topish uchun ajoyib imkoniyat sanaladi. Mashhurbek doim yangi tadqiqotlarga qiziqqan. “Aqlli” hassa g‘oyasi esa boshqalarga yordam berish maqsadini ko‘zlab amalga oshirilgan. U ovozli yordamchi, akselerometr, GPS hamda doimiy yangilanib turadigan funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

— Ko‘zi ojiz insonlar ko‘cha-ko‘yga chiqqanda yonida doimo hamrohi bo‘lishi kerak. Mustaqil harakatlana olmaydi. Yaratgan qurilmamiz yo‘lovchining o‘zi mustaqil harakatlanishiga imkon beradi. GPS qurilma orqali qayerda, yo‘lning qaysi qismida harakatlanayotganini yaqinlariga bildirib turadi, — deydi Mashhurbek Qarshiyev. — Quloqchin orqali esa yo‘nalish va mavjud to‘siq, yo‘l, yo‘laklar haqida ham ovozli ma’lumotlarni olib turish mumkin.

Yana bir e’tiborli jihati, ushbu qurilma kechasi yorug‘lik taratish orqali atrofdagilarga foydalanuvchining kelayotgani haqida xabar berib turadi. Hassa ustidagi reflektorlar yordam kerakligini yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilariga bildiradi.

— “Aqlli” hassamizda to‘siqlarni aniqlash uchun ultratovushli sensorlardan foydalandik, — deydi Abdumalik Qarshiyev. — U ko‘rish qobiliyatida muammosi bo‘lgan odamlar hayotida haqiqiy o‘zgarish yaratib, ularda harakatchanlik, mustaqillik va ishonchni oshiradi hamda ijtimoiy hayotga moslashuvini ta’minlaydi.

“Aqlli” hassa elektr energiyasidan quvvatlanadi. Bit marta quvvat to‘ldirilsa, 48-72 soatgacha yetadi.

— Dunyoda mavjud shunga o‘xshash qurilmalarni o‘rgandik. To‘g‘risi, eng qulay va mukammali o‘zimizniki ekan. Har tomonlama mustahkam. Shuningdek, hamyonbop. Masalan, Buyuk Britaniyada foydalanishga tavsiya etilgan “aqlli” hassa narxi bizning pulga chaqqanda 5-6 million so‘m. Biz yaratganimiz esa aynan undan mukammal bo‘lsa-da, atigi 600-700 ming so‘m atrofida bo‘ladi, — deydi Mashhurbek.

“Aqlli” hassa yaratgan bu uch innovator ayrim yoshlardagi va ularni kelajakka ruhlantiruvchi ota-onasi va ustozlaridagi “Bizga bo‘laveradi” qabilidagi qarashlarga toqatsizligini yashirmadi.

Davlatimiz rahbari ham Navoiy viloyatida faollar bilan uchrashuv davomida bir gapni aytgandi: “Bizga shu ham bo‘laveradi, degan qarash bilan yashash vaqti allaqachon o‘tdi. Uyida daromad topgan, farzandlarini ham shu ruhda o‘stirgan oila farovonligiga zamin yaratadi. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad odamlarga yelkadosh bo‘lish, farzandlarining baxti-kamolini ko‘rishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishdir”.

Bugun oramizda “Bizga bo‘laveradi” degan tushuncha bilan yashayotgan, shunga monand hayot kechirayotganlarni ko‘p uchratamiz.

Aytmoqchi bo‘lganimiz shuki, yurtda bu qoldiq stereotip va qobiqlarni yorib kelayotgan navqiron va bilimdon, aql-zakoga ega avlod shakllanyapti. Ular ko‘p ishga qodir!

**Sarvar TO‘RAYEV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

2024-yil 26-aprel, 80-son

**Muhammad Yusuf bahor ayni quvvatga kirgan, kuchga to‘lgan paytda tug‘ilgan, shuning uchunmi, bahorning barcha xislat va fazilatlari, shiddati, yangilanish va o‘zgarishlari, goh keskin, goh jo‘shqin evrilishlari, chaqmoqlari-yu momoqaldiroqlari uning sajiyasida, tabiatida, ijodida aks etib, yaqqol ko‘rinadi. Bir qarasangiz, shiddatli, qudratli she’riyat, bir qarasangiz, sokin, vazmin, mayin she’riyat. Ohang, tasvir, marom o‘zgarib, yangilanib, almashib turadi.**

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

YULDUZLAR MANGU YONADI

# Muhammad Yusuf hududi



**Salim ASHUR,**
*O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist*

**Boshlanishi 1-betda**

Ko‘zni quvnatib, qulfi dilni yashnatayotgan turfa gul-g‘unchalar, subhidam nasimida ohista tebrangan navrasta nihollar, bir tekis sabza urgan maysa, giyohlarning xushbo‘y atri barq urgan Adiblar xiyobonida — buyuklarning kahkashonida nurli qalam sohibi bo‘lgan O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf muhtasham haykal qiyofasida mag‘rur turadi. Ko‘rkam va bahavo bu yerni, bu gulzor, bu gulshanni “Muhammad Yusuf hududi”, deymiz. Muhammad Yusufning Adiblar xiyobonidagina emas, katta adabiyotda ham hududi bor. Ayniqsa, tavalludining 70 yilligi munosabati bilan atoqli shoir haykali qoshida bahr-u baytlar, mushoiralar, she’r va so‘z bahs-u munozaralari har qachongidan ham ko‘proq qizigan. O‘tkir so‘zlar qayrog‘ida toblangan ovoz pardalarida o‘qilayotgan chin o‘zbekona, sirli, sehrli so‘zlar tashnayu chanqoq qalblarga asrlar mobaynida qatra ko‘rmagan tuproqqa, tomchi ko‘rmagan zaminga tomgan obihayot — obirahmat yanglig‘ yog‘ayotir. Shoir tori kuylayotir, nayi eshilib-to‘lg‘onmoqda.

Ha, Adiblar xiyoboni har yili 26-aprel arafasida yanayam gavjum, yanayam fayzli bo‘ladi, yashnoq hayot qaynab-toshadi, hayot nayi kuy chaladi. Negaki savrning 26-kuni yosh avlodning, butun xalqimizning suyukli shoiri Muhammad Yusuf tavallud topgan kun. O‘quvchilar, talabalar, yoshlarning qadami uzilmaydi shu kunlarda bu yerdan. Yana mushoiralar bo‘ladi. Yana mashhur shoir bilan bog‘liq aziz xotiralar, yaqin o‘tmish shirin entikib eslanadi. Ajoyib inson — ajoyib shoirning hayoti bilan bog‘liq qiziqarli voqealar yodga olinadi. Uning gap-so‘zlarini, har xil voqea-hodisalar oqimida, kurashlar to‘lqinida o‘zini qanday tutgani eslanadi, odamoxunligi, oddiyligi, kamtarligi haqida gapiriladi. Shoir hayotda, kundalik turmushda qanday inson bo‘lgani yana davra suhbatlari mavzusiga aylanadi.

Muhammad Yusuf bahor ayni quvvatga kirgan, kuchga to‘lgan paytda tug‘ilgan, shuning uchunmi, bahorning barcha xislat va fazilatlari, shiddati, yangilanish va o‘zgarishlari, goh keskin, goh jo‘shqin evrilishlari, chaqmoqlari-yu momoqaldiroqlari uning sajiyasida, tabiatida, ijodida aks etib, yaqqol ko‘rinadi. Bir qarasangiz, shiddatli, qudratli she’riyat, bir qarasangiz, sokin, vazmin, mayin she’riyat. Ohang, tasvir, marom o‘zgarib, yangilanib, almashib turadi. Zerikmaysiz. Zamonaviy kitoblarda bir nafasda to‘rt-beshtadan ortiq she’r o‘qimaslik tavsiya qilinadi. Shu qoidaga amal qilinmasa, she’rlar aralashib, misralar chuvalashib, keyingi she’rlarning “ta’mi”ni, “rangi”ni sezmaslik mumkin ekan. Ammo xushfe’l, kengfe’l Muhammad Yusufning ayni dilbar, xiyla to‘pori, ya’ni o‘ziga o‘xshagan she’rlarini o‘qiyotganda bu qoidaga amal qilinmasa ham hech narsa yo‘qotmaysiz. She’rlar o‘z “ta’mi”ni saqlab qoladi.

She’r qalamini tutgan odam avval talabalarning tiliga tushsa, yozganlari avval talabchan talaba va muhabbattalab tolibalar, ya’ni cho‘rtkesar yosh nasl orasida chinakamiga shov-shuv bo‘lsa, shundagina har yog‘i mustahkam ihotalangan “adabiyot bog‘i”ga kirish uchun “maxsus yo‘llanma” olgan bo‘ladi. Shu ma’noda, biz — o‘tgan asrning saksoninchi yillari talabalari orasida nomi tongda chiqqan mitti yulduz kabi tobora yorug‘roq charaqlab kelayotgan Muhammad Yusufning abyoti kuzda Sirdaryoning salqin dalalari — mezon suzgan paxtazorlarida kechgan oqshomgi mushoiralarda yoddan entikib-entikib, o‘rtanib-o‘rtanib, tebranib-chayqalib aytilar, o‘rtada yonib turgan gulxan isita olmagan ozurda va oshufta yosh ko‘ngillarni isitar, olovlantirar, yondirar edi:

*Qovushmagan ikkita taqdir,*
*(Balki u ham o‘zicha haqdir),*
*Orasiga ikki egatni*
*Atay tashlab o‘tdi brigadir.*

Kimdir “Dalada” she’ridan shu to‘rt misrani baralla o‘qiydi. Qiyqiriq, qiy-chuv ko‘tariladi. Chunki shoirning ushbu she’ri zax va qorong‘i shiyponga biz bilan birga kirib-chiqib yurgan ikki kursdoshimiz hayotidan olib yozilgandek tanish taassurot uyg‘otadi. “Gap egasini topadi” deganlaridek, “gap egalari” duv qizaradi va davradan sekin sirg‘alib chiqadi.

Muhammad Yusufning she’rlari har birimizning hayotimiz sahnalaridan olib yozilgan parda-lavhalarga, o‘zbekona hayot suratlari, haqiqat parchalariga o‘xshaydi: ham achchiq, ham shirin. Ular go‘yoki ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz haqida, biz haqimizda bitilgandek. Lirik qahramonlar o‘rnida har kim o‘zini, o‘z manzaralarini, tanish manzaralarni ko‘radi.

Uning “Bir kuni” she’ri ham rosa mashhur, auditoriyalarda, yotoqxonalarda ko‘pchilik takrorlab yurardi. O‘sha zamon kishisi, ziyolilar, jafokash omma, mehnatkash xalq Yer yuzini to‘ldirib yuborgan to‘plarning bug‘doy o‘rishini, tanklarning paxta terishini, oq tan, qora tan millatlarning Hazrati inson bo‘lishini orzu qilgan. Bunday orzu o‘sha davrning, o‘sha tutum, o‘sha tuzum, o‘sha jamiyatning muqim madaniyati, dunyoqarashi, falsafiy mezoni sanalardi. Sirasini aytganda, bunday olijanob orzu-niyat bugun-da zamondoshlarimiz qalbida gurkirab yashaydi:

*Bir kuni,*
*Bir alvon*
*Zamon keladi,*
*Zamin uzra*
*Omon-omon bo‘ladi.*
*O‘n yilmi,*
*Yuz yilmi o‘tib oradan,*
*Urushlar,*
*Nizolar ketib oradan,*
*To‘plar*
*Adirlarda bug‘doy o‘radi,*
*Tanklar*
*Dalalarda paxta teradi.*
*Millatlar,*
*Elatlar*
*Oq tan, qora tan*
*Hammasi*
*Hazrati inson bo‘ladi...*
*Olam guliston bo‘ladi...*

Ushbu satrlarda dunyo taqdirini o‘z taqdiri bilan uyg‘un tasavvur etgan shoir ko‘ngilning, nekbin qalbning orzu-armonlarini ko‘rasiz. Chunki shoir davr kishisi, zamon shaxsi. Muhammad Yusuf shunday edi. U paytlarda: “Shoir bo‘lmasliging mumkin, lekin vatanparvar fuqaro bo‘lishing shart” degan qat’iy qoida amal qilardi. Ne tongki, orzular ham adashadi, orzular so‘ng yo‘l topadi. Ne tongki, o‘sha yuksak orzu-armonlar bu murakkab, ziddiyatli, tahlikali dunyoda bugun ham shoirning, oqniyat qalbning orzu-armonlari, ehtimol, shirin xayollari bo‘lib qolmoqda.

Shunday paytda yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalikni asrab-avaylash, kerak bo‘lsa, tinchlikni saqlash yo‘lida o‘zini ayamay kurashish naqadar muhim ekani ayon bo‘ladi. Chunki tinchlik-osoyishtalik, mehr-oqibat, ertangi kunga ishonch, hozirgi soatdan xotirjamlik bo‘lsagina biz maqsad qilgan va intilayotgan yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni bunyod eta olamiz.

Mana, yuqoridagi she’r yozilganidan buyon, shoir she’rda aytganidek, oradan bir necha o‘n yil o‘tdi, yuz yil ham o‘tar, lekin she’rda ko‘tarilgan umumbashariy g‘oyaning ahamiyati oshsa oshdiki, aslo kamaygani yo‘q.

Shu o‘rinda savol paydo bo‘ladi. Bugun nafaqat mamlakatda, balki butun turkiy dunyoda tavalludi ulkan adabiyot bayrami, she’riyat bayrami, so‘zga oshufta qalblar bayrami sifatida keng nishonlanayotgan Muhammad Yusuf aslida kim, qanday shaxs edi? Aslida, qanday shoir edi?

U, avvalo, g‘oyat milliy, yuksak ma’noda xalqchil, chin o‘zbek shoiri edi. O‘zbekning baxti, quvonchi va dard-armonlarini baralla ayta olgan shoir edi. Shoirlarni xalqning tili, dili deyishadi. Muhammad Yusuf she’rlari, qo‘shiqlari orqali tom ma’noda xalqning tiliga, diliga aylandi. Xalqimiz uni chin ma’noda o‘z qalbi sifatida, o‘z shoiri sifatida qabul qildi.

Xalqchillik xalq bilan tabiiy, botiniy, ruhiy yaqinlik, asarlarda xalqning dunyoqarashini, o‘y-xayollarini aks ettirish, shoir va xalq ongu tafakkurining birlashib ketishidir, xalqqa til — so‘z, lug‘at bilan ham, fikrlash yo‘sini bilan ham anglamli bo‘lishdir. Xalqning quvonchiyu sevinchi, shu bilan birga, ko‘pdan odamlarni qiynab kelayotgan dardu tashvishlar, milliy qadriyatlar, an’analarning nafaqat katta hajmdagi badiiy asarlarda, balki lirik asarlar, she’rlarda ham keng va chuqur aks etishidir. Shu badiiy darajaga erishgani, ko‘tarilgani, shu badiiy hududni to‘la zabt etgani sababli Muhammad Yusufning asarlari bir o‘qishdayoq, bir mutolaadayoq xalqning sezgisi, idroki, irodasiga borib yetdi, xalqning qalbiga singdi, sizib kirdi. Adabiyotning zukko sinchisi Vissarion Belinskiy fikricha, xalq hayotini, turmushni haqqoniy aks ettirish xalqchillik hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, xalqchillik degani aslo arzon-garovlik, jo‘nlik, yelgil-yelpilik, adabiy yengiltaklik, ommaboplik, oldi-qochdi, degani emas, albatta.

Vatan, istiqlol, mustaqillikni mustahkamlash singari taqdirdosh mavzular Muhammad Yusuf ijodining bosh mavzulariga aylandi. Asriy istibdoddan, istibdodning zulmi, zo‘ravonliklari va azob-iztiroblaridan xalos bo‘lib, endi qaddi-bastini tiklab olayotgan xalqning cho‘kib, botib ketgan ruhini ko‘tarish, o‘ziga, o‘z kuch-qudratiga, salohiyatiga ishonchini qaytarish shoir ijodining asosiy g‘oyasiga aylandi. Uning mangulik bilan bo‘ylashgan she’rlari yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, yurtdoshlarimiz qalbida ona O‘zbekistonimiz bilan faxrlanish va fidoyilik tuyg‘ularini uyg‘otish, milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongi va tafakkuriga singdirish borasida muhim ahamiyat kasb etdi. Qalbi mudom bedor va sergak shoirning vatanparvarlik, millatparvarlik, yaxshilik, ezgulik ruhini yoygan, shu yuksak va hayotbaxsh g‘oyalarni she’r bo‘lib, qo‘shiq bo‘lib targ‘ib qilgan ijodi O‘zbekiston mustaqilligini kuylagan boshqa zabardast shoir va adiblarning mag‘rur ovozi kabi o‘sha davrda bo‘shab qolgan, yangilanayotgan ma’naviy-ma’rifiy muhitni to‘ldirishga, uni yangi ma’no-mazmun bilan boyitishga xizmat qildi. Bu borada katta ijodiy manba bo‘ldi. Bu o‘ktam va mag‘rur ovozlar istiqlol mohiyati faqat moddiy noz-ne’matlar bilan baholanmasligini, avvalo, ma’naviy-ruhiy daxlsizlik, ong, tafakkur, hissiyot erk-u ozodligi bilan belgilanishini uqtirgan, shundan qimmatli saboq bergan, shu oddiy, ammo buyuk mantiqni yangi zamon, yangi davr odamlari qalbiga jo etgan ovozlar edi.

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,*
*Qumlar bosib qurimasin daryolarim,*
*Alpomishga alla aytgan momolarim*
*Ruhini shod etay desang — xalq bo‘l, elim.*

Shoir orzu qilganidek, qadim yurtga qadim navolar qaytdi. Yangi havolar keldi. O‘z taqdirini, shoirlik qismatini Vatan, millat taqdiri bilan aslo ayro tasavvur qilmagan shoirning yozganlari badiiy bashoratga, haqiqatga aylanadi.

Shoirning eng haroratli, eng latif satrlari, hech shubhasiz, Vatan to‘g‘risidadir. U O‘zbekistonni, o‘zbekni cheksiz muhabbat bilan sevdi va katta ilhom bilan kuyladi. Masalan, “O‘zbekiston” she’rida:

*Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,*
*Bildimki, yaqini shu tuproq menga.*
*Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing*
*Arab ohusidan azizroq menga,*

kabi quyma satrlarni o‘qiymiz. Bir haqiqatni tan olaylik: Muhammad Yusufning bunday ma’no-mag‘zi to‘q, o‘qishga va uqishga yengil she’rlari kirib bormagan va sevib o‘qilmayotgan xonadon yurtimizda bo‘lmasa kerak. Shoir o‘z she’rlari kirib borgan har bir xonadonning ko‘zga ko‘rinmas, biroq ruhiyatda sezilgan a’zosiga aylangan, desak xato bo‘lmas. Uning she’rlarini avval onalar, otalar chin mehr berib o‘qigan, o‘qib yig‘lagan bo‘lsa, endi yangi zamonda farzandlar, o‘g‘il-qizlar chin mehr qo‘yib o‘qimoqda. Bu uzviylik an’anaga aylangan va davom etayotir va yana ko‘p davom etadi.

Yana bir rost gapni aytishimiz kerak: u o‘zbek badiiy ijodiyotida yaxshi she’rning sara namunalarini yaratdi, yarata oldi. “Lolaqizg‘aldoq”, “Vatanim”, “Izhori dil”, “Tavallo” kabi she’rlari milliy adabiyotimizning mumtoz namunalari qatoridan joy olib ulgurgan.

O‘ynoqi, ravon, sodda, xalqona... Uning she’riyatining asosiy fazilati shu to‘rt so‘zda jam, deb o‘ylaymiz. U navqiron, jo‘shqin, ayni paytda bir bahya iztirob va simillagan og‘riq sizgan, bir fasl mahzun ijodi bilan oddiylikdan g‘ayrioddiy san’at yarata oldi. Ha, oddiylikdan g‘ayrioddiy san’at yaratdi.

Yana bir haqiqat bor: XXI asrda she’r o‘zgardi, she’rxon o‘zgardi, bu jarayon hali-hamon davom etmoqda. Ehtimol, bu evrilish bir zum bo‘lsin to‘xtamas, so‘zning, she’rning rivoji shudir. Nima bo‘lganda ham Muhammad Yusufning she’rlariga qiziqish o‘zgargani yo‘q. Bu she’rlarni o‘qib-o‘rganish to‘xtagani yo‘q. Negaki, she’r ham aniq ilm kabi o‘qigan kishini nimagadir o‘rgatadi, nimadandir saboq beradi, qandaydir xulosalarga olib keladi, qandaydir to‘xtamlarga olib boradi, o‘quvchi qalbida o‘zgarish yasaydi, qalbga, ongga ta’sir qiladi. Shoirning she’riyatni *“bir malhamga”, “bir shirin g‘amga”, “bevafo”* yo *“bag‘ritosh sanam”*ga qiyoslashi bejiz emas, bunda chuqur ma’no mavjud, degan xayolga boradi kishi. Darhaqiqat, she’rning doyasi bo‘lgan ilhom ba’zan bevafo, ba’zan bag‘ritosh, ba’zan malham, ba’zan shirin g‘am. Shoirlik va she’r tabiati haqida ko‘p she’rlar yozilgan. Shu uzun va uzoq safda ushbu she’rning hech qachon yo‘q bo‘lmaydigan o‘z o‘rni, o‘z salmog‘i bor.

Uning she’rlarida his-tuyg‘u va fikr chuqur, teran badiiylik kasb etgan holda uyg‘unlashib, tiriklikka, hayotga intilgan nozik gulu giyohlar, maysayu qiyoqlar misol o‘zaro chatishib, o‘zaro qo‘shilib, birikib, bitta bo‘lib, bir vujudga aylanib ketgan. Satrlarda sog‘inch, mehr-muhabbat barq urib, bo‘y yoyadi.

Muhammad Yusufning nihoyatda o‘ziga xos shoir ekanini yaqqol isbotlaydigan yana bir qiziq holat mavjud. Ya’ni uning uslubida yozishga, unga o‘xshatib yozishga harakat qilganlar, hatto unga taqlid qiluvchilar ko‘p bo‘ldi. Ammo...

*Sen — shoxlari osmonlarga*
*Tegib turgan chinorim,*
*Ota desam,*
*O‘g‘lim deb,*
*Bosh egib turgan chinorim,*
*Qo‘ynimdagi iftixorim,*
*Bo‘ynimdagi tumorim,*
*O‘zing mening ulug‘lardan*
*Ulug‘imsan, Vatanim!*

Bu she’r kuy va yangroq ovozdan qanot bog‘lab, qo‘shiq bo‘lib, mashhur va xushovoz xonanda Sevara ijrosida cheksiz dengizlar, qirg‘oqlari nihoyatda keng ummonlar, behudud kengliklar osha yuksak parvoz qilib, dunyoni kezib, dilbar shoir Muhammad Yusufning gavharu inju so‘zlarini, o‘zbekning o‘ktam ovozini dunyoga yoymoqda.

Shoirga ko‘pchilik ijodkorga nasib etmagan yuksak e’zoz-e’tiroflarga erishdi. Bu katta va yuksak, pishiq va puxta asarlar, mashaqqatli ijodiy mehnat tufayli, albatta. Bu haqda so‘z ochilganda, mamlakatimizda shoir xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilganini qisqacha aytib o‘tish ayni muddao bo‘ladi deb hisoblaymiz. Jumladan, 2017-yilda Andijon shahrida Muhammad Yusuf nomida ijod maktabi tashkil etildi va eng zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlandi. Maktabda shoir muzeyi faoliyat yuritadi. Muzeydan shoirning shaxsiy buyumlari, nashr etilgan kitoblari, xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bosilgan to‘plamlari joy olgan. Ta’lim dargohining ozoda va ko‘rkam hovlisida shoir byusti o‘rnatilgan, unda navqiron, otashnafas shoirni ko‘rasiz. Shu yerda shoir nomi bilan atalgan maxsus xiyobon mavjud, uni o‘quvchi va o‘qituvchilar mehr bilan “adabiyot xiyoboni” deb ataydi. Davlatimiz rahbari 2019-yilda maktabga tashrif buyurgan, o‘qituvchilar, o‘quvchilar bilan muloqot qilib: “Muhammad Yusuf halqimiz sevgan samimiy shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak. Buning uchun bir daqiqayam vaqtlaringizni behuda o‘tkazmay, ko‘proq o‘qib, tarixga uyg‘oq boqib kamolga yetishlaringiz zarur. Eng katta boylik — ma’naviy boylikdir”, degan edi.

Bugungi kunda maktabda adabiyotimizning porloq kelajagini, yorqin istiqbolini belgilab beradigan yosh iste’dodlar kamolga yetmoqda. Ular O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etiladigan yosh ijodkorlarning respublika Zomin seminari hamda boshqa adabiy anjumanlarda, ko‘rik-tanlovlarda faol va muvaffaqiyatli ishtirok etib, ijod maktabi nufuzini oshirib, maktab sha’nini ko‘tarib kelmoqda. Harakatchan va intiluvchan o‘quvchilar orasida allaqachon ilk kitoblari chop etilganlari bor. Ularning aksariyatini respublikadagi barcha teng-to‘shlari yaxshi taniydi, biladi.

Hozir Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi, Marhamat tumanidagi san’at maktabi, Toshkent shahri va Marhamat tumanida alohida ikkita ko‘cha Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi.

Muhammad Yusuf umrining so‘nggi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mehnat qilgan, xususan, iste’dodli yosh ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan, bu qutlug‘ dargohga yorug‘ umid bilan ostona hatlab kelgan insonki bor, barchasining boshini silagan, mehr, g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bugun esa O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan joriy yilda shoirning yetmish yilligi munosabati bilan “Saylanma”, “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” kitoblarini nashr etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, joylardagi o‘quv va ta’lim muassasalarida, korxona va tashkilotlarda, mahallalarda yoshlar, nuroniylar, xotin-qizlar, umuman, aholining keng qatlami ishtirokida shoirning ibratli hayoti va badiiy yuksak ijodini chuqur o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan mushoiralar, adabiy anjumanlar, uchrashuvlar o‘tkazish nazarda tutilgan.

El-yurtimiz shoir xotirasini bu qadar samimiy e’zozlashi bejiz emas. Zero, Muhammad Yusuf butun iste’dodini, iqtidorini, mehr-muhabbatini xalqqa berdi. Xalq ham jo‘mard va do‘lvor shoirdan mehr-muhabbatini, hurmat-izzatini ayamadi. Shoir Alloh in’om etgan hayotini ham xalq uchun, uning baxt-saodati uchun fido qildi, shoirona so‘zi xalqning so‘ziga aylandi, o‘z ijodi, hayoti bilan tom ma’noda xalqning hayotiga qo‘shilib ketdi. Yurtdoshlarimiz ham tom ma’noda xalqchil shoir bo‘lgan Muhammad Yusufning o‘lmas yodini, o‘chmas ijodini asrab-avaylab, ardoqlab kelmoqda. Bundayin baxt uncha-muncha shoirga nasib etmasligi aniq. Nasib etganlar esa chinakam baxtli shoirlardir.

Muhammad Yusuf shu ma’noda o‘zbekning chinakam baxtli shoiri. Uning hayoti va ijodini qisqa qilib: “Yonib... o‘chmagan yulduz”, deb ta’riflasa mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1357.
44543 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:10 Topshirildi — 00:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05